



ISHLAB CHIQRARISH VA XIZMATLAR SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI BELGILAB BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 18-dekabr kuni hududlarda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xizmatlarni rivojlantirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Jahonda ro‘y berayotgan voqealar oqibatida mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan xom-ashyo va mahsulotlar narxi, ularni yetkazib berish xarajatlari oshmoqda. Shuning uchun, eng avvalo, o‘zimizdagi xom-ashyoni chuqur qayta ishlab, raqobatbardosh mahsulotlarni ko‘paytirish kerak.

Yig‘ilishda bu boradagi tizimni takomillashtirish choralarini belgilandi. Unga ko‘ra, endi hududlarda ishlab chiqarish, sanoat zonalari va eksport bilan Savdo-sanoat palatasi shug‘ullanadi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining viloyat boshqarmalari va tuman bo‘limlari tugatildi. Eksport agentligi va jamg‘armasi, “O‘zbekeksper-tiza” tashkiloti ham Savdo-sanoat palatasi tizimiga o‘tadi.

— Loyiha va eksport qilish tizimini davlatdan tadbirkorlarning o‘zi boshqaradigan tashkilotga olib beryapmiz. Bu tadbirkorlarni ishlatish, talab va istaklarini amalga oshirish uchun kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari ishlab chiqarish va eksportni ko‘paytirish bo‘yicha yangi imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Bugungi kunda to‘qimachilik sanoatida qo‘llaniladigan ayrim mato va sintetik ip-kalava chetdan olib kelinmoqda. Shu bois, mahalliy lashtirish va eksportni oshirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar boshlangan.

Masalan, Yuqori Chirchiq tumanida gazlama ishlab chiqarish va bo‘yoqxonalar tashkil qilish bo‘yicha 350 million dollarlik, Nukus shahrida sun‘iy tola, gazlama-mato va bo‘yoqxonaga yo‘nalishida 60 million dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Andijon va Samarqand shaharlarida sun‘iy toladan parda va mebel matolari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Paxtaobod tumanida to‘qimachilik sanoat zonalari tashkil qilindi. Qoraqalpog‘iston va 6 ta viloyatda sun‘iy toladan ip-kalava tayyorlaydigan 15 ta loyiha ishga tushirildi.

Umuman, kelgusi yilda to‘qimachilikka yana 700 million dollar qo‘shilgan qiymat yaratish imkonligi qayd etildi. Shu bois, bu tarmoq korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tartib joriy qilinadi. Buning uchun yuqori qiymat yaratadigan yangi loyihalarga 200 million dollar resurs sifatida ajratiladi. Matoni bo‘yash korxonalariga suv tozalash inshootlari xarajatlari davlat hisobidan qoplab beriladi. Sanitariya bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy qilgan to‘qimachilik korxonalariga 100 million so‘mgacha subsidiya ajratiladi.

Mahsulotlarning sifatini ta‘minlash maqsadida xorijdan dizayner, marketolog va konstruktorlar jalb etish kerakligi aytili.

Ma‘lumki, jahonga chiqish uchun eng muhim jihatlardan biri — brend. “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” degan yoriqli mahsulotlarimiz brendga aylanmagani sababli tashqi bozorda arzon sotilyapti.

Shu bois, Prezident mamlakatimiz mahsulotlarining faqat sotilishi emas, balki tashqi bozorlarda brend sifatida tanilishi uchun ham ko‘maklashish zarurligini ta‘kidladi.

Savdo-sanoat palatasiga mato, kiyim, gilam, poyabzal, charm, oziq-ovqat, uy buyumlari va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarni brendlar talablariga to‘liq moslashtirib, buyurtmalarni joylashtiruvchi “sorsing” kompaniyalari bilan bog‘lash vazifasi qo‘yildi.

Mahalliy korxonalarimizning xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirokini ko‘paytirish, Yevropa va Osiyo shaharlarida savdo uylarini ochish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Shuningdek, mashhur nomdagi mahsulotlarni yurtimizda ishlab chiqarish ham mumkin. Misol uchun, kelgusi yil Chirchiqda Germaniya texnologiyasi asosida yiliga 2,5 million dona alyumin qadoqlash korxonasi ishga tushadi. Bu nafaqat salqin ichimliklar, balki kosmetika, maishiy kimyo, oziq-ovqat yo‘nalishidagi korxonalar uchun ham qulaylik. Bunday imkoniyatlardan foydalanib, nufuzli brendlarni O‘zbekistonga olib kelish zarurligi aytili.

Qayd etilganidek, buning uchun yangi chora yondashuvlar joriy qilinadi:

— brendlar ostida ishlab chiqarishni boshlayotgan korxonalariga xalqaro standartlarni joriy qilish, ekologiya va sertifikatlash xarajatlari qoplab beriladi;

— mahalliy lashtirishni kamida 60 foizga yetkazish sharti bilan ular uchun zarur barcha xomashyolar bo‘xona to‘lovlaridan ozod qilinadi;

— kamida 30 foiz mahsulotini brend ostida ishlab chiqaradigan tadbirkorlarga xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun nazarda tutilgan imtiyoz va yengilliklar beriladi;

— yirik brendlardan jalb qilingan texnolog, dizayner, marketolog kabi mutaxassislardan O‘zbekistonda ishlaganlik uchun to‘lovlar undirilmaydi.

Yurtimizda kimyo sanoati uchun ham ko‘p xomashyo mavjud. Hozirgi kunda jami 3 milliard dollarlik loyihalarni shakllantirilgan.

Elektrotexnika sanoatida 2 milliard dollarlik loyihalar uchun imkoniyat ham, katta bozor ham bor. Masalan, yurtimizda qurilayotgan 27 gigavatt quvvatli quyosh va shamol stansiyalari uchun 500 million dollarlik kabelga ehtiyoj bor. Xuddi shunday, maishiy texnika, transformator kabi uskunalarga ham talab yuqori.

Kelgusi yilda Ohangaron sanoat zonasida ishga tushiriladigan 120 million dollarlik 5 ta loyiha hamda Buxoro shahrida tashkil etiladigan 120 million dollarlik texnopark bu mahsulotlarni mahalliy lashtirishga yo‘naltirilgan.

Mazkur tarmoqlarda ham ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘iston tumanlari va Nukus shahrida sanoatni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratdi. Bu hududda ishlab chiqarishni kengaytirishga past foizda kredit berish uchun 100 million dollar ajratilgan. 23 ta istiqbolli loyiha shakllantirilib, viloyatlar va tijorat banklari biriktirilgan. Mutasaddilar ushbu loyihalarning ijrosi yuzasidan axborot berdi.

Yig‘ilishda xizmat ko‘rsatish va turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

Joriy yilning 11 oyida 421 trillion so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilgan. Bu o‘tgan yilga nisbatan 13,6 foiz ko‘p. Yil yakuni bilan iqtisodiyotda xizmatlar ulushi 43 foizdan oshishi kutilmoqda. Lekin bu ko‘rsatkichlar yetarli emas. Moliya, transport, turizm, ta‘lim, tibbiyot va axborot texnologiyalari sohalari-da hali imkoniyatlar ko‘p.

Yaqinda Biznesni rivojlantirish banki hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil qilindi. 2024-yil 1-yanvardan bazaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi mikro-moliya banklari ishga tushadi. Shularga asosan, kelgusi yilda moliyaviy xizmatlar hajmi 30 foiz oshishi kutilmoqda.

Xalqaro kapital bozorlarida 500 million dollarlik “yevrobotond” joylashtirish bo‘yicha ish olib borilmoqda.

“O‘ilaviy tadbirkorlik” dasturi doirasida o‘z kichik biznesini ochgan va ijobiy kredit tarixiga ega aholiga 50 million so‘mgacha, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagidagi aholiga 100 million so‘mgacha garovsiz kreditlar berish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, o‘zini o‘zi band qilganlarga biznesga birinchi qadam uchun kredit berish taklifi ma‘qullandi.

Yurtimizda jami xizmatlarning to‘rt dan bir qismi transport sohasiga to‘g‘ri keladi. Bu

yil 1 ming 500 ga yaqin avtobus, 25 ta yangi samolyot olib kelindi. Xususiy aviakompaniyalar ish boshladi, 17 ta yo‘nalish ochildi.

Bu ishlarni davom ettirib, viloyatlar va qo‘shni davlatlarga avtobus yo‘nalishlarini, mamlakatimiz shaharlari o‘rtasida aviaqatnovlarni ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Temir yo‘l sohasida ham tariflar qayta ko‘rib chiqildi, keraksiz imtiyozlar bekor qilindi. 6 ta tezayur va 30 ta elektr poyezd olib kelinmoqda. Bu kelgusi yilda 20 foiz o‘sishni ta‘minlash imkonini beradi.

Yurtimizda xususiy ta‘lim va tibbiyot xizmatlari tez o‘tib bormoqda. Bunga qo‘shimcha imkoniyat yaratish uchun bo‘sh yerlarni shu ixtisoslik bo‘yicha auksionga chiqarish imkonligi aytili.

Bugungi kunda IT xizmatlarining yalpi ichki mahsulotimizdagi ulushi 3-3,5 foizga teng. Kelgusi yilda kamida 30 foiz o‘sishni ta‘minlab, bu tarmoqda xizmatlar hajmini 41 trillion so‘mga yetkazish, eksportni 2 karra oshirish muhimligi ta‘kidlandi.

Mamlakatimizda turizm salohiyati katta. Buni samarali ishga solish uchun mehmonxonaga va mehmon uylarini ko‘paytirish lozimligi ta‘kidlandi.

Tarixiy va xushmanzara turizm maskanlarining master rejasini tayyorlanishi, ularning infratuzilmasiga qo‘shimcha mablag‘ ajratilishi belgilandi. Ularga olib boruvchi ko‘chalarni ta‘mirlash bilan birga, yo‘l bo‘ylarida savdo va servis shoxobchalarini joylashtirish vazifasi qo‘yildi.

Xorijda turistlar uchun zararli buyumlari savdosi ham keng yo‘lga qo‘yilgan. Mamlakatimizda buning uchun yetarli sharoit bo‘lsa-da, bunday buyumlar kam ishlab chiqariladi. Shu bois, kelgusi yilda har bir hududda zamonaviy zargarlik majmualarini tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Shuningdek, mamlakatimizda xalqaro “O‘zbekiston ipak matolari” moda haftaligini tashkil qilish taklifi bildirildi.

Bozorlarimizning turistlar uchun qulayligini oshirish lozimligi qayd etildi. Ularni sayyohlar kunlab vaqtini o‘tkazishi mumkin bo‘lgan majmualarga, madaniyatimizni aks ettiradigan “tashrif qog‘oz”ga aylantirish muhimligi ta‘kidlandi.

Bu chora-tadbirlar natijasida xizmatlar va turizm sohasida 2 milliondan ortiq aholi bandligini ta‘minlash imkonligi qayd etildi.

Yig‘ilishda tarmoq va hududlar rahbarlarining hisobotlari, tadbirkorlarning takliflari eshitildi.

QATAR AMIRI AMALIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy 19-dekabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni tantanali topshirish marosimida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Toshkent shahrida bo‘ladi.

Qatar Amiri tashabbusi bilan ta‘sis etilgan mukofot bilan 2016-yildan buyon har yili global miqyosda korrupsiyaga qarshi kurashga qo‘shgan hissasining e‘tirofi sifatida taniqli jamoat arboblari, ekspertlar va jurnalistlar taqdirlab kelinmoqda. Tashrif doirasida oliy darajadagi muzokaralar ham bo‘lib o‘tadi.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil 1-2-oktabr kunlaridagi Qatarga davlat tashrifi davomida, eng avvalo, siyosat, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va madaniy-gumanitar sohalarda erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi ko‘rib chiqiladi. Xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashiladi.

O‘ZA

GEOLOGIYA-QIDIRUV ISHLARI BO‘YICHA AXBOROT BERILDI

Davlatimiz rahbari shu yil 22-noyabr kuni “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatida bo‘lganida istiqbolli geologiya maydonlarini o‘zlashtirish bo‘yicha vazifalar qo‘ygan edi.

18-dekabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda soha mutasaddilari ushbu vazifalar ijrosi, 2024-yilga mo‘ljallangan geologiya-qidiruv va ishlab chiqarish dasturi bo‘yicha axborot berdi.

Qayd etilganidek, bu ishlar ikki yo‘nalishda — ham mavjud konlarda gaz qazib olish hajmini saqlab qolish, ham yangi zaxiralarni aniqlash bo‘yicha olib borilmoqda. Oxirgi yillarda geologiya-qidiruv ishlari 2-3 kilometr dan 4-5 kilometr chuqurlikkacha tushirildi. Buning natijasida yangi gaz zaxiralari aniqlandi, qo‘shimcha 4,4 milliard kub metr gaz qazib olindi.

Shuningdek, xalqaro konsalting kompaniyasi jalb qilinib, ko‘plab istiqbolli quduqlarni ishga tushirish imkonini topildi.

Buni davom ettirib, kelgusi yilda 3,5 ming kvadrat kilometr maydonda seysmik ishlar olib borish hamda yangi qidiruv quduqlari qurish rejalashtirilgan.

Yig‘ilishda buning uchun xorijiy investitsiyalar jalb etish, tarmoq korxonalarini aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash masalasi ko‘rib chiqildi.

Ilg‘or texnologiyalarni olib kelib, 6-7 kilometr chuqurlikda geologik burg‘ilashga o‘tish masalalari muhokama qilindi.

Energiya manbalarini izchil yetkazib berish, shu bilan birga, hududlar va yirik korxonalar kesimida to‘lov intizomini ta‘minlash muhimligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON — QATAR: KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH SARI NAVBATDAGI QADAM

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TAKLIFIGA BINOAN QATAR DAVLATI AMIRI SHAYX TAMIM BIN HAMAD OL SONIY 19-DEKABR KUNI AMALIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONGA KELADI.

Qatar Amiri Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimida ishtirok etadi. Qayd etish joizki, ushbu tadbir MDH mamlakatlari hududida birinchi marta o‘tkazilmoqda.

Davomi 2-betda

YANGICHA YONDASHUVLAR

ERKIN BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH paxta yetishtiruvchilarga qulayliklar yaratmoqda

Bozor iqtisodiyoti ham taklif, ham talabga mos mahsulot ishlab chiqarish, o‘zaro savdoda barcha tomonlar manfaatdorligini ko‘zlashni nazarda tutadi. So‘nggi yillarda har sohada bozor munosabatlarini shakllantirish borasida tashlanayotgan katta qadamlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan eng muhim islohotlardan, deyish mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida samara bermoqda. Birgina bug‘doy va paxtani erkin savdoga chiqarish va mustaqil narx belgilashning joriy etilishi tizimda chin ma‘noda inqilob yasaganiga guvoh bo‘lyapmiz.

Bu, asosan, yurtimiz paxta-to‘qimachilik sanoatida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Aynan mana shu tarmoqda uzoq yillar davomida narx belgilash faqat davlat ixtiyorida bo‘lib kelgan, fermer esa xomashyoni yetishtirib bergan, xolos. Hozir esa dehqon yoki fermer o‘zi yetishtirgan mahsulotga o‘zi erkin narx belgilash, bozor sharoitidan kelib chiqib, xaridor topish va mahsulotini sotish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shunga mos ravishda sohada faoliyat olib borayotgan korxonalar-

ning investitsiya va eksport faoliyati har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Natijada ushbu yo‘nalishda rivojlanish ko‘rsatkichlari yildan-yilga oshib, agrar sohaning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Bugun yurtimizda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini to‘liq va ip-kalavaning 45 foizi qayta ishlanayotgan, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshgani buning yaqqol isboti.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

MINTAQA CHARM SANOAT XABI

Qo‘shilgan qiymat zanjiri sohani ushbu maqomga olib chiqmoqda

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Rennans poydevorini yaratish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar samarasi o‘laroq, bugun barcha soha va tarmoqlarda jadal yangilanish, taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tish jarayoni kechmoqda. Mana shu qizg‘in, ta‘bir joiz bo‘lsa, tarixiy jarayonning bevosita ishtirokchi yoki kuzatuvchisi sifatida ko‘pchiligimizda “Eng katta o‘zgarish qaysi sohada kuzatilyapti?” degan savol paydo bo‘lishi tabiiy, albatta. Va bu savolga aksariyatimiz xalq bilan samarali muloqot tizimi, uy-joy qurilishi, energetika ta‘minoti, tadbirkorlik muhiti, so‘z erkinligi, davlat xizmatlari ko‘rsatish kabi qator yo‘nalishlarni misol sifatida keltiramiz. Chunki bular har birimizning kundalik turmushimizga bevosita ta‘sir qiluvchi soha va tarmoqlar bo‘lib, ulardagi o‘zgarishlar samarasini o‘z tanamizda his qilyapmiz.

Davomi 4-betda

TARAQQIYOT YO‘LI

JADIDCHILIKNI NEGA VA QANDAY O‘RGANISHIMIZ KERAK?

MILLATIMIZ FIDOYILARINING GUMANISTIK QARASHLARIGA TAYANISHIMIZ, ULARNING MEROSIDAN MA‘NAVIY KUCH-QUVVAT OLIHIMIZ HAQIDA

Yaqin tariximizning eng e‘tiborli hodisalaridan biri, shubhasiz, jadidchilikdir. Prezidentimiz nutqlarida bu harakatning zamonamiz uchun nechog‘liq muhimligiga urg‘u berib keladi. Bu bejiz emas. Yaqinda poytaxtimizda jadidchilikka bag‘ishlab o‘tkazilgan nufuzli xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida ham davlatimiz rahbari jadidchilik harakatining Turkiston tarixida tutgan o‘rni hamda bugungi kun uchun ahamiyatiga alohida diqqat qaratdi.

Jadidchilik qay darajada o‘rganildi va bugungi kunda mutaxassislard oldida yechimini kutayotgan yana qanday dolzarb muammolar bor? Ma‘rifatparvar jadidlar adabiy-ilmiiy merosini qaysi mavzular kesimida va qay mezonlar asosida tadqiq qilish zarur? Ular

asarlardagi qaysi g‘oyalardan bugungi avlod tarbiyasida foydalanish kerak? Bu kabi savollar jadidchilik va jadid adabiyotini tizimli va rejali asosda o‘rganish istiqbollarini belgilash uchun ham muhimdir.

Davomi 3-betda

BIZ VA DUNYO

O'ZBEKISTON – QATAR: KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH SARI NAVBATDAGI QADAM

Boshlanishi 1-betda

Ushbu tashrif Qatar rahbarining oxirgi olti oy ichida O'zbekistonga ikkinchi tashrifi va oliy darajadagi uchinchi O'zbekiston — Qatar sammitidir. Bu, avvalo, ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo'lida ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan siyosiy muloqotning faol dinamikasidan dalolat beradi.

“ **Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning joriy yil iyun oyida O'zbekistonga ilk va tarixiy davlat tashrifi hamda Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil oktabr oyida Dohaga davlat tashrifi ikki tomonlama diplomatik munosabatlarni rivojlantirish va o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi istiqbollarini ochishga kuchli turtki bo'ldi.**

Natijada savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalar hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishga qaratilgan 24 ta ikki tomonlama hujjatlar, umumiy qiymati 12 milliard dollarlik bitimlar imzolandi.

Bunday faol muloqotning rivojlanishi tomonlarning ham ikki tomonlama munosabatlarni kengaytirish, ham Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo o'rtasidagi mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashdan yuqori manfaatdorligi bilan izohlanadi. Buni Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi, Islom hamkorlik tashkiloti sammitlari, davlatimiz rahbarining arab dav-

latlariga tashrifi natijalari tasdiqlaydi.

Yuqori darajadagi munosabatlar ham faol dinamika bilan ajralib turadi.

2022-yilning 14-15-sentabr kunlari Qatar tashqi ishlar vaziri Sulton bin Saad al-Murayyiy Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitida ishtirok etish uchun Toshkentga tashrif buyurdi. Ushbu sammit chog'ida Qatar davlatiga SHHTning muloqot bo'yicha hamkori maqomini berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Diplomatik aloqalar mustahkamlanishida 2023-yil 7-may kuni Toshkentda Qatar elchixonasining ochilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Joriy yil mart oyida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMTning rivojlantirish mamlakatlar bo'yicha V konferensiyasida ishtirok etish uchun Doha shahrida bo'ldi. O'zbekiston parlament delegatsiyasining tashrifi doirasida Qatar Maslahat kengashi raisi Hasan al-G'anim bilan uchrashuv va muzokaralar bo'lib o'tdi.

O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov shu yil 10-11-dekabr kunlari "Umumiy kelajakni bunyod etish" mavzusidagi Doha forumida ishtirok etdi. Forum doirasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi. O'zbekistonning Qatardagi elchixonasi rasmiy ochilish marosimi ham bo'lib o'tdi.

Mamlakatimiz Qatarni Yaqin Sharqdagi istiqbolli iqtisodiy hamkor, deb biladi. O'zbekiston ham, Qatar ham bu borada hali foydalanilmagan ulkan salohiyatga ega va joriy munosabatlarni faollashtirish ikki davlatning bugungi kun tartibidan o'rin olgan.

Shu yil 26-27-aprel kunlari poytaxtimizda o'tkazilgan ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun Qatar savdo va sanoat vazirining o'rinbosari Sulton al-Xotir



boshchiligidagi bir qator vazirlik va yetakchi kompaniyalar vakillaridan iborat ushbu mamlakat delegatsiyasi O'zbekistonga keldi. Hozirgi vaqtda forum yakunida energetika, transport, logistika, qishloq xo'jaligi, mehnat munosabatlari va boshqa yo'nalishlarda yirik qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha erishilgan kelishuvlarni hayotga tatbiq etish jarayonlari davom etmoqda.

2023-yilning 8-9-may kunlari O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov Dohada bo'lib, qator vazirlik va yetakchi kompaniyalar vakillari bilan uchrashdi, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Qatar kompaniyalari ishtirokida qator sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirilyapti. Ana shunday loyihalardan biri Sirdaryo viloyatida Qatarning "Nebras Power" kompaniyasi tomonidan Fransiya va Yaponiyaning "EDF" va "Sojitz Corporation" kompaniyalari bilan hamkorlikda qurilayotgan 1600 Mvt. quvvatga ega issiqlik elektr stansiyasidir. Ushbu kor-

xona 2024-yilda ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Qatarning "Al-Mirkab" kompaniyasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalarni muhokama qilindi.

O'zbekiston va Qatar Markaziy Osiyo Ko'rfaz arab mamlakatlari bilan bog'lovchi eng qisqa, ishonchli va xavfsiz transport-logistika yo'laklarini shakllantirishdan manfaatdor. Transafg'on temir yo'l koridorini yaratish bo'yicha strategik loyihani birgalikda amalga oshirishga ko'maklashish istiqbollari muhokama qilinmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar ko'rsatkichlari mamlakatlarimizning bugungi salohiyatiga to'g'ri kelmaydigan o'zaro tovar ayirboshlash hajmini bir necha barobar oshirishga xizmat qiladi.

Qayd etish joizki, Qatar O'zbekistonning Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Mamlakatimiz, o'z navbatida, Qatarning Afg'oniston xalqiga favqulodda gumanitar yordam ko'rsatish borasidagi harakatlari to'liq e'tirof etadi.

Shubhasiz, ikki davlatning tarixi, madaniyati va diniy mushtarakligi, boy ma'naviy merosi madaniyatlararo muloqotni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Qatar zamonaviy O'zbekiston hududida yashab jod qilgan buyuk mutafakkir va olimlarning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini, Arabiston yarim oroli va Movarounnahr o'rtasidagi tarixiy aloqalarni yuksak qadrlaydi. Ushbu jihatlar madaniyatlararo muloqotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi va sayyohlik, jumladan, ziyorat turizmi sohasidagi o'zaro hamkorlik uchun yaxshi istiqbollarni ochadi. 2021-yilning 1-martidan Qatar fuqorolarining O'zbekistonga kirishi uchun 10 kunlik vizasiz rejim joriy etildi, 2023-yil iyun oyida esa bu muddat 30 kungacha uzaytirildi. Imzolangan hukumatlararo bitim asosida ikki davlat o'rtasida havo aloqalari yo'lga qo'yilgan.

“ **O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Qatar Milliy kutubxonasi o'rtasida hamkorlik izchil rivojlanmoqda. O'zbekistonlik va qatarlik olimlar ushbu kutubxonada saqlanayotgan Markaziy Osiyo tarixiga oid qo'lyozmalar bo'yicha birgalikda tadqiqot ishlarini olib bormoqda. O'zbek olimlari va mutafakkirlarining qo'lyozma asarlarini raqamlashtirish va ularni o'rganish sohasida ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan.**

2022-yil kuzida Qatar poytaxtida O'zbekiston madaniyati kunlari bo'lib o'tdi. Uning doirasida O'zbekiston davlat simfonik orkestri konsertlari, xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi o'tkazildi. Aytish mumkin, ushbu madaniy tadbirlar Qatar jamoatchiligi tomonidan iliq kutib olindi.

Joriy yilning iyun va avgust oylarida O'zbekiston madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov va oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari Shahlo Turdiqulova boshchiligidagi davlatimiz delegatsiyalarining Qatarga tashrifi ham tomonlarning fan, madaniyat va ta'lim sohalarida o'zaro hamkorlikni kengaytirishga intilishini tasdiqlaydi.

Yana aytish joizki, mamlakatlarimiz o'rtasida futbolni rivojlantirish bo'yicha hamkorlik ham istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda. 2017-yilda O'zbekiston va Qatar futbol assotsiatsiyalari o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan edi. Shuningdek, 2021-yil iyun oyida O'zbekiston va Qatar o'rtasida futbolni rivojlantirish, tajriba almashish, musobaqalar tashkil etish, murabbiylar malakasini oshirish va futbol o'yinlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.

Hech mubolag'asiz aytish mumkin, bugungi kunda O'zbekiston va Qatar barcha yo'nalishlarda o'rnatilgan muloqot darajasini muttasil oshirishga intilmoqda. Qatar Amirining mamlakatimizga bo'lajak tashrifi esa, shubhasiz, samarali o'zaro manfaatli hamkorlikni davom ettirish va rivojlantirish uchun ikki tomonlama munosabatlar poydevorini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

YANGICHA YONDASHUVLAR

ERKIN BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH paxta yetishtiruvchilarga qulayliklar yaratmoqda



Ravshan MAMUTOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Ammo bu natijalardan quvonib, harakatni susaytirib qo'yish yaramaydi. Chunki global iqlim o'zgarishlari sabab dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi tobora murakkablashib bormoqda. Bunga javoban har bir davlat o'z qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishga intilyapti. Yurtimizda bu boradagi imkoniyatlar keng bo'lsa-da, ulardan unumli foydalanish uchun yirik chora-tadbirlar ishlab chiqishda davom etishimiz lozim. Mamlakatimizda asosiy vazifalar qatorida ayni shu jihatlarga e'tibor qaratilayotgani, agrar soha imkoniyatlarini oshirishga katta kuch sarflanayotgani boisi ham shunda.

Prezidentimizning joriy yil 12-dekabrda "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlari yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham tizimda olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Unda ko'zda tutilgan vazifalar qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlari yanada rivojlantirish, paxta xo'mashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklar va klaster-

lar o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tanlov ixtiyoriy

Mazkur farmon, avvalo, paxta xo'mashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklarning mahsulotni sotishda erkinligini kafolatlamoqda. Ya'ni endilikda paxta xo'mashyosini yetishtiruvchi va klasterlar o'rtasidagi xo'mashyo yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari birjada har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladigan savdolar natijalariga ko'ra erkin tuziladi. Bunda, asosan, tuproq hosildorligi normativlari hisobga olinadi.

Gap shundaki, paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari hamkorligi bu yo'nalishdagi ishlar avvalida, ayniqsa, muvaffaqiyatli harakatlardan biri bo'lgan. Amaldagi tartibga ko'ra, fermer xo'jaligi yetishtirgan paxta xo'mashyosini klaster ma'lum narx evaziga sotib oladi va to'liq qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantiradi. Shu bois, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda klasterlar katta o'rin tutmoqda. Qolaversa, ular hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda ham faol ishtirok etyapti. Kusanachilarni birlashtirib, hurnarmandchilikda kooperatsiyani yanada rivojlantirmoqda.

Ammo ish bor joyda kamchilik bo'ladi. Hududlarda aholi bilan muloqot davomida bu boradagi ayrim noroziliklar uchrab turadi. Xususan, klaster va fermer xo'jaligi o'rtasida majburiy shartnoma mavjudligi, belgilangan majburiyatlar bajarilmasligi yoki moliyaviy muammolar bo'yicha murojaatlar ko'paygan edi. Yuqoridagi farmon bilan belgilangan yangi tartib esa ana shu muammolarning aniq yechimini ko'rsatib bermoqda. Belgilanganidek, endilikda ikki tomon o'rtasidagi fyuchers shartnomalari birja savdolari orqali kelishilgan talablar asosida tuziladi.

Shuningdek, hujjat bilan ortiqcha, jumladan, o'z mablag'i va tijorat krediti hisobiga yetishtirilgan paxta xo'mashyosini

si yetishtiruvchilar tomonidan birja orqali tadbirkorlik subyektlariga sotilishi mumkin. Bu esa ularning manfaatdorligi va daromadi oshishi, paxta yetishtirishda zamonaviy usullarni keng qo'llash va agrotexnik tadbirlarni olib borish, yerlarning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhim jihati, farmon bilan ko'plab fermer va dehqon xo'jaliklarini qiynab kelayotgan mablag' masalasiga ham yechim berildi. Ya'ni fyuchers shartnomasi tuzgan yetishtiruvchi va urug'chilik subyektlariga har yili 1-oktabrdan boshlab paxta xo'mashyosini yetishtirish uchun xo'mashyo qiymatining 60 foizigacha, yillik 10 foizda 14 oyga kredit ajratilishi belgilanmoqda. Ahamiyatli, ajratilayotgan kredit mablag'i 12 oylik imtiyozli davr bilan beriladi. Mahsulot yetishtiruvchilar mazkur mablag' hisobidan agrotexnik tadbirlar doirasidagi tovarlar, jumladan, moddiy resurslar yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarni ixtiyoriy ravishda tanlashi mumkin. Bu esa raqobat muhiti yuzaga kelishi va sifat jihatdan yaxshilashiga xizmat qiladi.

Klaster tashkil etishning yangi tartibi qanday?

Paxta tolasi dunyo to'qimachilik sanoati uchun tabiiy tolaning eng ulkan va qayta tiklanuvchi manbai hisoblanadi. Nafisligi va havo o'tkazuvchanligi kabi xususiyatlari, shuningdek, ekologik sof mahsulot ekani bilan sun'iy tolalarga qaraganda bir qancha afzalliklarga ega. Shu sababli dunyoda paxta tolasi talab aslo kamaymaydi.

"Oq oltin" yetishtirish avvaldan O'zbekiston iqtisodiyotining muhim qismi bo'lib kelgan. Hozir ham shunday. Ammo endi yurtimiz paxta xo'mashyosini eksport qiluvchi davlat emas, balki uni to'liq qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarib, xorij bozoriga bir necha barobar qimmatga sotayotgan mamlakatlar qatoriga qo'shildi. Bunda paxta-to'qimachilik klasterlarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Mahsulot yetishtirishdan to'qayta



ishlashgacha bo'lgan zanjirni o'zida birlashtiradigan bu tizim tarmoqning asosiy kuchiga aylangan.

Ammo zamon tezkor, hamma narsa o'zgarib boryapti. Barcha sohalarida rivojlanishning asosi yangilanishlar, ilg'or yondashuvlarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish tartibini ham yangilash zarurati yuzaga keltiradi. Shu bois, farmon bilan bu borada ayrim talablar va yangilangan tartib joriy etilmoqda. Xususan, 2024-yildan boshlab klasterlar faoliyati qishloq xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat hokimlarining qarori bilan tashkil etiladi.

Klaster tashkil etish uchun esa talabgorlar to'qimachilik mahsulotlari, ya'ni ip-kalava, trikotaj mato, gazlama, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarining kamida ikkita bosqichini yo'lga qo'yishi lozim. Bundan tashqari, ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan klasterlarning tugatilish bosqichida emasligi, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilmagan va "yomon" kredit

toriyasi bilan jihozlangan omborlarda saqlanishi shartligi ham belgilanmoqda. Yana ishlab chiqarilgan paxta tolasi avtomatlashgan majburiy hisobga olish tizimi joriy qilinadi. Bu mazkur tizimda aniq statistika yuritilishga xizmat qiladi. Aniqrog'i, ushbu yo'nalishda ham faol raqamlashtirishga o'tilyapti. Zamonaviy texnologiyalar imkoniyati ilm-fan bilan uyg'unlashtirilib, natijadorlik yanada oshishi ta'minlanadi.

Yer bilan tillaslang dehqonlar yaxshi biladi, qishloq xo'jaligida mo'l hosil olish yerning holatidan tortib, ob-havo qanday kelishigacha bog'liq. Ilgari bunday holatlar boricha qabul qilinib, mirishkorlar unga moslashgan. Lekin hozir har bir jarayonni ilmiy yondashuv asosida tahlil qilib, samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyati yuqori. Zamonaviy texnologiyalar esa ilmiy loyihalarni hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Ayniqsa, resurs tejamoq texnologiyalar raqamlashtirishning asosiy qismidir. Shu bois, farmon bilan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan kreditlardan 2024-yilda qaytgan mablag'lar summi tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Bu fermer va dehqon xo'jaliklariga yana bir bor hosildorlikni oshirish va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda imkoniyatini kengaytirishga ko'maklashadi.

Umuman olganda, sohadagi islohotlarning pirovard maqsadi aholi farovonligini oshirish, dehqon va fermerlarni yerning haqiqiy egasiga aylantirishdan iborat. Yuqoridagi farmon esa agrar tarmoqda shaffoflikni kuchaytirish, bozor iqtisodiyotiga faol o'tish, yer egalari bo'lgan xalqimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularga qo'shimcha qulayliklar yaratishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Bularning bari bevosita mamlakatimiz iqtisodiy rivoji, yurtdoshlarimizning moddiy farovonligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



TARAQQIYOT YO'LI

JADIDCHILIKNI NEGA VA QANDAY O'RGANISHIMIZ KERAK?

MILLATIMIZ FIDOYILARINING GUMANISTIK QARASHLARIGA TAYANISHIMIZ, ULARNING MEROSIDAN MA'NAVIY KUCH-QUVVAT OLISHIMIZ HAQIDA



Nurboy JABBOROV, filologiya fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Ko'milgan haqiqatlarning tirilishi

Biz jadidchilik bo'yicha shu paytgacha bajarilgan ulkan va salmoqli ishlarni sinchiklab o'rganish, shundan so'ng ularni munosib davom ettirish haqida o'ylashimiz kerak. Holbuki, o'zbek va dunyo olimlari jadidchilik hamda jadid adabiyotini u shakllangan va takomilga erishgan XX asr avvaldanoq tadqiq qila boshlagan. Abdurauif Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurahmon Sa'diy, Olim Sharafiddinov, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Ahmad Shukriy singari o'zbek, Ismoilbek Gaspirali, Zarif Bashiriy, Jalil Mamatqulizoda kabi qardosh adabiyotshunolar, shuningdek, rus olimlaridan V.Bartold, A.Samoylovich va A.Pyaskovskiy tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Ilmiy haqiqat, ayniqsa, u o'sha davrdagi hukmron tuzum tomonidan ko'milgan bo'lsa, shunchaki yuzaga chiqib qolmaydi. Uni aniqlash, ustiga tortilgan tuproqni tozalash, oydinlashtirish uchun, ta'bir joiz bo'lsa, iga bilan qudduq qazish — ulkan sabr-u bardosh hamda yuksak intellektual salohiyat zarur. Bu yo'lga kirgan tadqiqotchi har qanday mehnat-u mashaqqatga, qiyinchilig-u zahmatga tayyor turishi kerak. Milliy adabiyotshunosligimizda jadid adabiyotini yangi mezonlarda o'rganish murakkab va ziddiyatli bir davrda — sho'rolar zamonida boshlangan. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning boshida ustoz olim G'ulom Karimov turgan. Domla shogirdi Begali Qosimovga dastlab Toshkent jadidlaridan Mirmuhsin Fikriy ijodiy merosini nomzodlik dissertatsiyasi uchun mavzu sifatida bergan. Keyin esa XX asr avvali jadid she'riyati tadqiqotini doktorlik dissertatsiyasi doirasida o'rganishni tavsiya etgan.

Tabiyki, u davrda jadidchilikni o'z nomi bilan tadqiq qilish imkonsiz edi, yakkahukmron kommunistik mafkura bunga yo'l bermasdi. "Qalovini topsang, qor ham yonar", deganlaridek, ustoz olim yo'lini topgan — jadid she'riyatini "XX asr boshlari o'zbek inqilobiy she'riyati" degan nom ostida tadqiq qilgan. Holbuki, o'sha kezlari maktabdan oliy o'quv yurtlarigacha — ta'limning barcha bo'g'inlarida XX asr avvali o'zbek adabiyoti bor-yo'g'i to'rt ijodkordan iborat, deb o'rtatilgan. Ular — Zavqiy, Avaz O'tar, Hamza va Sadridin Ayniy. Barchasi jabrdiyda, "sinfiy dushman" — mahalliy hukmdorlardan zulm ko'rgan. Begali Qosimov ta'bir bilan aytganda, "Ayniy amir Sayid Olimxonning, Avaz Isfandiyo'rxonning, Zavqiy Ergash qo'rboshining kattagini yegani uchun. Bu mezon hozir kulg'ini, albatta. Lekin zamon shunga majbur qilgan". Olim birlamchi qo'lyozma va toshbosma manbalar hamda arxiv hujjatlari changini yutib, o'sha davrda Turkistonda qizg'in ijodiy muhit bo'lganini, 100 dan ortiq shoiru adib ijod bilan shug'ullanganini aniqladi. "Izlay-izlay topganini" monografiyasi shu tariqa yuzaga keldi.

O'sha og'ir zamonda jadidlarning milliy istiqloil uchun kurashgani haqida ochiq yozish katta jasorat talab qilgani sho'rolar tuzumini bilgan har bir tafakkur egasiga ayon. Olim "inqilobiy" she'riyatini (aslida, jadid she'riyatini) tahlil etar ekan, mana bunday yozadi: "Gap

milliy ozodlik, mustaqillik haqida, har bir millatning o'z erki bilan yashashi haqida ketyapti, albatta". Bu fikrlar 1983-yili nashr etilgan kitobdan olindi (demak, kamida undan ham to'rt-besh yil avval yozilgan!). Sho'rolar zamonini ko'rganlar o'sha kezlari bunday so'zlarni yozish qanchalik jasorat bo'lganini juda yaxshi anglaydi va his etadi.

Olim istiqloil davrida bu boradagi ilmiy izlanishlarini yangicha g'ayrat va shijoat bilan davom ettirdi. Milliy universitetda jadidchilikni tadqiq qiladigan va o'qitadigan milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti kafedrasiga asos soldi. Jadidchilik va jadid adabiyoti bo'yicha ilmiy darajali shogirdlar yetishtirdi. Ular bilan birga jadid shoiru adiblar ijodini ta'lim tizimining barcha — o'rta, o'rta-maxsus va oliy ta'lim bosqichlari dasturlariga, darsliklariga olib kirdi. "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" monografiyasini nashr ettirdi. Oliy o'quv yurtlari uchun "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligi yaratilib, nashr etilishiga bosh-qosh bo'ldi. Nemis olimasi Ingeborg Baldauf, yapon Xisao Komatsu, amerikalik Adib Xolid, bundan tashqari, turk, tatar va boshqa xalqlar olimlari bilan ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Yana bir fidoyi ustozimiz — akademik Naim Karimov jadidchilik va jadid adabiyotini o'rganish bo'yicha katta ahamiyatga ega tadqiqotlarni amalga oshirdi. Arxiv materiallari asosida qatag'on qilingan yuzlab shoiru adiblar merosini yuzaga chiqarish yo'lida mehnat-u zahmat chekdi. Faqat ilm-u tafakkur bilangina emas, pok qalbi, ruhi bilan ham butun bilimi va salohiyatini jadidlar ijodini o'r-

qitish uslublari chuqur tadqiq qilinishi zarur. Biroq bu darsliklarning barchasi arab imlosida nashr etilgan. Buning uchun arab yozuvdagi manbalarni o'qish va uqish malakasi talab etiladi. Birgina o'qishning o'zi kifoya qilmaydi, adabiy idrok, uslubchiga xos zako zarur. Bundan tashqari, o'sha davr xususiyatlarini ham anglash kerak. Bu talablarga javob beradigan yagona mutaxassis professor Ulug'bek Dolimovdir. U "Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. "Ma'rifafat darg'alari", "Turkistonda jadid maktablari", "Milliy uyg'onish pedagogikasi" singari monografiyalar chop ettirdi.

To'g'ri, bugungi kunda jadid pedagogikasi sohasida o'nlab dissertatsiyalar himoya qilinayapti. Ammo bu davrga oid birlamchi manbalar asosida emas, bor ma'lumotlarni boshqarchoq shaklda ifodalash orqali. Faqat ilmiy daraja uchungina qilingan ish o'zini hech bir zamonda oqlamaydi. Mutaxassis o'z tadqiq qilayotgan mavzuning ichida yashashi zarur. Jadidlarning avlod tarbiyasini millat tarbiyasi deb hisoblagani e'tiborga olinsa, bu yo'nalishning nechog'liq muhim ekani ayon bo'ladi.

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini islohetishni maqsad qilgan jadidlar Vatani va millat taraqqiyoti yo'lidagi ushbu harakatlarning moliyaviy ta'minoti uchun xayriya jamiyatlari tuzgan. Bu jamiyatlar xalqdan yig'ilgan ionalar, millat boylari xayriyalari hisobidan faoliyat yuritgan. Toshkentda "Turon", Buxoroda "Tariyai atfol", Qo'qonda "G'ayrat" xayriya



ga raqobat qilolmasligini bilib, isloh qildi...


Abdurauif Fitrat va maslakdoshlari sa'y-harakatlari bilan 1909-yilda Istanbulda "Tariyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") xayriya jamiyatining sho'basini tuzdilar. Buxoro ta'mini (umumiy) maorif jamiyati ish boshlagan. Bu jamiyat Turkiyada va umuman, xorijda o'qiyotgan turkistonlik talabalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullangan. Mana, xayriya jamiyatlari Vatani va millat uchun qanchalik darajada ahamiyatli ishlarni amalga oshirgan. Biroq ushbu xayriya jamiyatlari faoliyati tizimli o'rganilgan emas. Ularning Turkiston tarixida, yosh avlod ta'limi va tarbiyasida, o'sha og'ir va murakkab zamonda millatdoshlarimizning cho'kkan ko'ngillarini obod qilish, nashriyotlar va kutubxonalar barpo etib, milliy ma'rifatni yuksaltirish yo'lidagi keng qamrovli faoliyati hujjatli, izchil va mufassal tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Tizimli o'rganish zarur bo'lgan muammolardan yana biri XX asr boshlarida jadidlar ta'xis etgan milliy matbuot materiallarini jurnalistika, til va adabiyot, tarix hamda boshqa fanlar kontekstida tadqiq qilishdan iborat. Boybo'ta Do'stoqrayevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligi va ko'plab ilmiy maqolalari ushbu masalaning ildirzari yoritilgan bilan ahamiyatli. Shogirdlariga Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Mu'in va boshqa jadidlarning muharrirlik va publistik faoliyati bo'yicha mavzular berib, dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qildi. Olimlarimiz tomonidan "Al-Isloh", "Oyna", "Maorif va o'qituvchi" jurnallari, "Sadoi Turkiston" gazetasi bo'yicha alohida tadqiqotlar yaratildi. Lekin aksar matbuot nashrlari hanuzgacha monografik asosda tadqiq qilingan emas.

XX asr avvalida garchi bugungidek texnika-texnologiya, internet imkoniyatlari bo'lmasa-da, turkiy dunyoning o'zaro aloqalari benihoya tezkor va mustahkam edi. Eng ahamiyatli, butun turk dunyosi nigohi turkiy taraqqiyotning azaliy beshigi — Turkistonga qaratilgan edi. Bog'chasaroyda Ismoilbek Gaspirali muharrirligida nashr etilgan "Tarjimon" gazetasining Turkiston haqida material berilmagan biror soni bo'lmagan. Ismoilbekning "Mukolamai salotin" ("Sultonlar suhbatli") asari bosh qahramoni Sohibqiron Amir Temurdir. Muallif janrini "xavoyli hikoya" deb belgilagan ushbu asarda Turkistonda o'sha zamondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyati teran badiiy talqin etilgan. Ushbu gazeteda bosilgan "Dorur-rohat musulmonlari" asarining asosiy qahramoni Yevropada ta'lim olgani bois, Fransaviy nisbasini olgan asli toshkentlik Mulla Abbas edi. Ushbu obraz orqali Turkistonning hamda turkiy dunyoning ozodligi va mustaqilligi g'oyalari tasvirlangan.

Yoki Rizouddin Faxriddinning Orenburgda chop etilgan "Sho'ro" jurnali, Fotih Karimiyning "Vaqf" gazetasi asosiy diqqat markazi Turkistonga qaratilgani ma'lum. Jadidshunos Begali Qosimov iste'dodli talabalaridan biriga "Sho'ro" jurnalida Turkiston mavzusi yoritilishi masalasini bundan chorak asr muqaddam diplom ishi sifatida o'rganishni tavsiya etgan edi. Afuski, bu ishlar oxiriga yetmay qolib ketdi. Ozarbayjon oydinlaridan Jalil Mamatqulizoda muharrirligida bosilgan rangli kari-

naturali "Mulla Nasriddin" hajviy jurnali Turkiston hayotini keng yoritgan. Qardosh xalqlar ziyolilari chop ettirgan ushbu matbuot nashrlarini Turkistonning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayoti, jadidlarimizning jamiyatni islohetish bilan bog'liq qizg'in faoliyati, turkiy dunyoning adabiy aloqalari nuqtayi nazaridan ilmiy asoslarda tizimli o'rganish kun tartibida turgan dolzarb muammolardandir.



Yana bir muhim masala jadidlarimizning Vatani ozodligi, millatni dunyoning mutaraqqiy xalqlari darajasiga ko'tarish orzusi — siyosiy masalaga hamda ijtimoiy faoliyatini tadqiq qilish zarurati bilan bog'liq. Birgina misol. Jadidchilik harakati karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy 1907-yildayoq (Turkiston muxtoriyati e'lon qilinishidan o'n yil oldin!) "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"ni tuzib, ko'rib chiqish uchun Rusiya Davlat dumasiga musulmon fraksiyasiga taqdim etgan edi. Loyihani 2001-yili Haarlemda (Niderlandiya) nashr etilgan "Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilollar. 1900-1924-yillar" to'plamidagi matn asosida o'zbek matbuotida ilk bor professor Begali Qosimov "Jahon adabiyoti" jurnalining 2003-yil 8-sonida e'lon qilgan. Mana, Mahmudxo'ja Behbudiy mazkur loyihada nimalarni yozadi: "Millatimizni iste'dodsiz va idora qilmaydigan (chunki) jiro va hizfiga qodir emas zan eduvchilar (gumon qiluvchilar), albatta, xato edarlar. Ovrupoyi rus musulmonlaridan ziyodaroq aftonimiyani Turkistonga berilmog'i lozimdir. Azbaski (chunki) turkistonliklar hanuz doxilani o'zini o'zi idora edar. Va ovrupoyi Rusiyadagi qardoshlari Turkistonda ixtiyordur". E'tirof etish zarur, "Turkistonga avtonomiya berilmog'i lozim" ekani haqida Rusiya Davlat dumasiga murojaatnomam yozish, hatto uning bandmas-band tuzilgan loyihasini taqdim etish o'sha mustabid tuzum sharoitida ulkan jasorat edi.

Behbudiy ilgari surgan talablar garchi "madaniy muxtoriyat" tarzida qo'yilgan bo'lsa-da, siyosiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega edi. Loyihaning dastlabki bandidayoq "Davlat dumasiga uchun Turkistonning adadi nufusi islomiyasiga (musulmon aholi soniga — N.J.) mutanosib vakil saylansun" deyilishi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. 1907-yil yanvar-fevralda 2-Davlat dumasiga bo'lgan

saylovda qariyb besh yarim millionlik tub joy aholidan 6, bir hovuch (322 ming) rusiyazabonlardan 7 kishi saylangani ham Behbudiyning "adadi nufusi islomiyaga mutanosib" (!) vakillar saylanishi haqidagi talabi nechog'liq o'rinni bo'lgani dalildir.

Loyihaning qimmatli jihatlardan yana biri shundaki, Behbudiy Davlat dumasiga Umumrusiya musulmonlari diniy va hayotiy ishlari boshqaruvining ancha mukammal tizimini tavsiya etadi. Uning fikricha, bu tizim quyidagicha bo'lishi kerak edi:

- Peterburgda bir mahkamai islomiya barpo etilishi;
- bu mahkamaga diniy va zamonaviy ilmga mohir musulm saylov asosida muayyan vaqt rahbarlik qilmog'i;
- bu muassasaning moddiy va ma'naviy ta'minoti Rusiya musulmonlari ittifoqi a'zolari hamda Davlat dumasidagi musulmon fraksiyasi vakillari maslahatiga asosan amalga oshirilimog'i;
- Toshkentda Turkiston idorai ruhoniy va doxiliyasi tashkil etilmog'i, unga "birinchi daraja ulamo sinfidan shariat va zamondan xabardor kishi saylov ila besh yil muddatga tayinlanib, shayxulislom atalishi" zarurligi;
- har bir viloyatda Turkiston idorai ruhoniy va doxiliyasining sho'basini va huquqiy hukm va talablarni o'rniqa kelitiruvchi jiroiya mahkamasi tashkil etilishi kerak.

Behbudiyning chinakam siyosatdonligi, hozirgi ta'bir bilan aytganda, tolerantligi yana shunda ko'rinaldiki, u Turkiston idorai ruhoniy va doxiliy mahkamasi va sho'balari faoliyat yurituvchi mas'ul shaxslar tarkibi haqida aniq tavsiyalar berish barobarida o'lkada yashovchi boshqa mazhab vakillari, shuningdek, o'zga millatlar masalalarini ham e'tibordan chetga qoldirmaydi. Bu esa Behbudiy tuzgan "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"da o'lkada yashovchi o'zga din va mazhabdagi kishilar huquqini ham to'liq kafolatlash nazarda tutilganidan dalolat beradi. Bunday keng fikrlik Behbudiy millat va milliyat masalalarini mezon deb bilarkan, boshqalar huquqini kamstishidan, shovinistik qarashlardan ancha baland turganini ko'rsatadi.

- Loyihada, bundan tashqari, quyidagi e'tiborga molik talablar ilgari surilgan:
— qozixonada doirasidagi barcha hujjatlar mahalliy tilda yozilishi;
- Rusiya adliya mahkamalari sayloviga va undagi mansablarga saylanmoqqa turkistonliklar haqli bo'lishi;
- Turkiston maishatidan xabarsiz yuristlardan Turkiston adliya mahkamalariga hakim etib tayinlanmasligi;
- mavjud qattiq nizomlar va chinovniklarga berilgan haddisiz ixtiyor bekor qilinishi;
- Turkiston maktab va madrasalari hukumat nazoratidan ozod etilishi;
- umumiy o'rta va oliy maktablarga musulmonlardan komissiya tayinlanishi, rus harfini musulmon maktabiga joriy etilmasligi;
- Turkiston xalqi talab qilguncha Turkistonga muhojir yuborilmasligi;
- Turkiston shaharlari ichidagi yerlar xoh muvaqqatdan, xoh abadiy bo'lsun, o'zgalarga berilmasligi.

"Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi" yozilgan davrdagi murakkab va ziddiyatli siyosiy vaziyat e'tiborga olinsa, bunday talablarni qo'yish, yana uni Davlat dumasiga taqdim etish chinakam vatanparvarlikni talab qilganini, Mahmudxo'ja Behbudiy Vatani va millat ozodligi, baxtu saodati yo'lida har qanday sinovga tayyor bo'lganini his etish imkonini beradi.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Bobolarimizning 'Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar' zamonlari o'tub, o'miga "Bilgan bitar, bilmagan yitar" zamonini keldi", deb yozadi. Bu fikrlar nainki o'sha davr odamlarini, balki zamondoshlarimizni ham chuqur o'ylashga, ogoh bo'lishga chaqiradi. Yuqoridagi fakt va ma'lumotlar jadidchilik harakatini yangi maktab g'oyasi, oydinlarimizning xayriya jamiyatlari tuzishi va bu orqali millat yoshlarini ilmi-ma'rifatli qizg'in yo'lidagi qizg'in faoliyatni nuqtayi nazaridan tizimli o'rganish zaruratini kun tartibiga qo'yadi. Milliy matbuot nashrlarini sahifama-sahifa, satrma-satr tahlil etmay, XX asr avvalidagi turkiy dunyo gazeta-jurnallarida Turkiston mavzusining yoritilishi tendensiyalarini izchil tadqiq qilmay turib, jadidchilik harakati va jadid adabiyoti mohiyatini anglash mumkin emasligidan dalolat beradi. Ma'rifatparvar jadidlar ijtimoiy-siyosiy faoliyatini bugungi kun talablari darajasida o'rganish va baholash hayotiy ehtiyoj ekani anglatadi.



ganishga bag'ishladi. Olimning "XX asr adabiyoti manzaralari", "Adabiyot va ijtimoiy hayot", "Uch buyuk siyom" singari o'nlab kitoblari hamda yuzlab maqolalari tariximiz, adabiyotimizning xalqimiz uchun qorog'ni bo'lib kelayotgan haqiqatlarini oydinlashtirishda beqiyos o'rinni tutdi.

Bundan tashqari, Boybo'ta Do'stoqrayev, Sherali Turdiyev singari zahmatkash olimlarimiz jadidchilikni o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar qildi. Bularni e'tirof etmaslik insofdan bo'lmas. Chekkan zahmatlari, erishgan ilmiy natijalari uchun ustoz olimlar ruhi oldida qardormiz. Ular boshlagan ishni yuqori saviyada davom ettirishga burchlimiz.

Yangi tadqiqotlar — hayotiy ehtiyoj

Yangilangan davrimizda jadidshunoslik ijtimoiy fanlarning deyarli barchasini qamrab oldi. Adabiyotshunoslik bu borada peshqadam ekani ayon. Tilshunolar, tarixchilar, ta'lim metodikasi mutaxassislari bu mavzuda ilmiy izlanishlar qilyapti. Jadidlarning iqtisodiyotini rivojlantirishga doir qarashlari o'rganilganidan xabardormiz. Falsafa sohasida ham tadqiqotlar qilinayotir. Lekin hali tadqiqotchilarni kutayotgan mavzular oz emas. Shulardan biri jadidchilikning tamol toshi hisoblangan "yangi maktab g'oyasi".

Jadidlar yaratgan darsliklar, ularning tarkibiy tuzilishi, o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos matnlar tanlanishi mezonlari,

jamiyatlari hamda 10 ga yaqin shirkat ana shu maqsadga xizmat qilgan. Bular barchasi, birinchi navbatda, usuli jadid maktablari faoliyatini yaxshilashga qaratilgan edi.

Bundan tashqari, faqir va muhtojlarni moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yetimxonalar (jadidlar ularni "Dorul aytom" deb atagan) qurish, keksalar va nogironlar uchun shifoxona va ambulatoriyalar barpo etish maqsadlarini qo'yg'gan. Millat yoshlarini maktabda o'qitish, eng iqtidorlarni oliy ta'lim olishi uchun dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarga yuborish bilan bog'liq masalalar ko'zda tutilgan. Jadidlar ta'xis etgan nashriyotlar xarajatlari ham xayriya jamiyatlari hisobidan qoplangan. Masalan, Abdulla Avloniy o'z tarjimaiyoli hoida "Turon" xayriya jamiyatining "Nashriyot", "Maktab" shirkatlari haqida ma'lumot beradi. Ma'rifatparvarning "Hukumatdan ruxsat olmoq uchun bir yarim oy ovraga bo'lmoqg'a to'g'ri keldi. Ikki marotaba bergan arizamiz rad qilinub, uchinchi marotabada ruxsat berdi. Men shul jamiyati xayriyaning muassis a'zolaridan bo'lib, boshlab ochiluvda bir yil raislik xizmatini ado qildim. Andin so'ng to hurriyat davrig'acha a'zosi bo'lib maktablarga, yetim va g'ariblariga yordam qilib kelinur", degan fikrlari buning isbotidir.

Toshkent jadidlari rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonovning ta'kidlashicha, millat oydinlari xayriya jamiyatlari mablag'lari evaziga "...Hech mumkin bo'lmag'on zamonda chetga o'quvchilari yubordilar. Maktablarni o'rta darajalarga a'qadar olib bordilar. Jamiyatlar chetga ketuvchi o'quvchilarga, maktablarga moddiy va ma'naviy yordam berilirk darajada kuchga ega bo'ldi. Gazetalar afkari ommani qo'lga olib, uch-to'rt ming nusxa sotilaturg'on martabaga yetdi... Hukumat rus-tuzum maktablarining "usuli jadid" maktablari-

"O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI

MINTAQA CHARM SANOAT XABI

Qo'shilgan qiymat zanjiri sohani
ushbu maqomga olib chiqmoqdaAvazbek XUDOYQULOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Boshqa tomondan esa ulardan ko'p bo'lsa ko'pki, kam bo'lmagan darajada rivojlanayotgan sohalarda ham bor, faqat bizga ta'siri bilvositaligi uchun e'tibor qilmaymiz. Charm-poyabzal va mo'ynachilik sanoati ana shunday tarmoqlardan biri. Jumladan, keyingi yillarda sohani rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor natijasida ishlab chiqarish zanjirining uzviyligi ta'minlandi. Bu borada "Xom-ashyodan — tayyor mahsulotgacha" tamoyili asosida terini qayta ishlashdan tortib, undan qo'shilgan qiymatli, raqobatbardosh va eksportbop tayyor mahsulotlar olishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim yaratildi.

— Ilgari foydalanilmagan imkoniyatlar kengligi borasida charm-poyabzal va mo'ynachilik sanoati yetakchilardan biri edi, — deydi "O'zcharmsanoat" uyushmasi raisi Faxriddin Boboyev. — Chunki qishloqlarda yashovchi odamlarimiz o'z xonadonida o'nlab chorva boqardi, ya'ni charm-poyabzal sanoati uchun zarur xom-ashyo topish mumkin edi. Lekin xom-ashyoni qayta ishlash yo'lga qo'yilmagani tufayli, masalan, poyabzalning asosiy qismini katta mablag' evaziga import qilardik. Bugun bu holat tamoman aks: xom-ashyo import qilib, tayyor mahsulot eksport qilyapmiz. Soha rivojida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan tortib, xalqaro sifat sertifikatlariga ega bo'lish, yangi bozorga yo'l olishga qaratilgan Prezidentimizning qarorlari, normativ hujjatlar qabul qilinayotgan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir tadbirkorga individual yondashuv asosida amaliy ko'mak ko'rsatilyapti. Bu qadam, eng avvalo, "O'zcharmsanoat" uyushmasi faoliyatining yo'lga qo'yilishi bilan boshlandi.

Darhaqiqat, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, xom-ashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini diversifikatsiyalash va eksport qilinadigan tovarlarni kengaytirish asosida ularning jadal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida 2018-yil 3-mayda davlatimiz rahbarining "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, "O'zbekcharm-poyabzal" uyushmasi "O'zcharmsanoat" uyushmasi etib qayta tashkil qilindi.

2022-yil 26-fevraldagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror bilan esa, teri xom-ashyosini chuqur qayta ishlash asosida undan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishni jadallashtirish maqsadida 2026-yilgacha qadar charm-poyabzal, jun va mo'ynachilik mahsulotlari eksportini 2,8 barobar ko'paytirish vazifasi belgilandi.

Prezidentimizning joriy yil avgustda tadbirkorlar bilan o'tkazgan navbatdagi ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasini yanada rivojlantirish, import o'rini bosuvchi, eksportga mo'ljallangan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida navbatdagi muhim hujjat qabul



qilindi. Prezidentimizning 2023-yil 11-oktabrdagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2024-2026-yillarda charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish va xorijiy brendlar bilan hamkorlik o'rnatish dasturi tasdiqlandi.

Bugungi kunda mazkur hujjatlar ijrosi doirasida charm-poyabzal va mo'ynachilikda xom-ashyo resurslaridan samarali foydalanish, sifat ko'rsatkichlarini oshirish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, tashqi bozorlardagi targ'ibotni kuchaytirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlar faol davom ettirilmog'da.

Ushbu sa'y-harakatlar natijasida bugun O'zbekiston charm sanoati Markaziy Osiyoda eng ko'p ishlab chiqarish quvvatiga ega mamlakat, eng yirik eksportyor davlat maqomiga erishdi. O'zimizdagi xom-ashyodan tashqari, qo'shni davlatlardan teri xarid qilib, uni qayta ishlashdek salohiyatga ega tarmoq vujudga keldi.

Dunyo bozoriga mos
katta salohiyat

Ayni paytda uyushma tarkibiga 280 million juftdan ziyod ishlab chiqarish quvvatiga ega 500 dan ortiq poyabzal fabrikalari kiradi.

"O'zcharmsanoat" uyushmasidan ma'lum qilishlaricha, 2023-yil yakuni bilan sanoat korxonalarini tomonidan 247 million



juft poyabzal ishlab chiqarilishi kutilmoqda. 500 dan ziyod modeldagi poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarish davr tababiga hamohang tarzda, jumladan, kombinatsi-

yalangan va ekologik toza materiallardan foydalanish negizida o'zlashtirildi.

Masalan, Qoraqalpog'istonda faoliyat yuritayotgan "Orient Technology", Sirdaryo viloyatidagi "Peng Sheng Charm", Surxondaryodagi "Top Quality Brand" va Toshkent viloyatidagi "Angren Charm Invest" korxonalarini Italiya hamda Germaniyaning zamonaviy texnologiyalariga asoslangan asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Shuningdek, Farg'ona viloyatidagi ish jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan "Vodiy Shoes", Andijon viloyatidagi "Ravon taraqqiyot orzusi" ko'plarmoqli korxonalarini ham ana shunday ishlab chiqarish quvvatlariga qatoriga kiritish mumkin.

O'tgan vaqt mobaynida sohani rivojlantirish yuzasidan olib borilgan sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, mamlakatimizda poyabzalga ehtiyojning katta qismini qoplash imkoniyati yaratildi. Jumladan, bugungi kunda erkaklar poyabzali bo'yicha ehtiyoj 92 foiz, ayollar va bolalar poyabzali bo'yicha esa 60-75 foiz o'zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobidan qoplanayapti. E'tiborlisi, bu boradagi ichki talabni to'liq qoplash, shu bilan bir qatorda, eksport imkoniyatini kengaytirish choralarini ko'rilmoqda.

— Mamlakatimiz Markaziy Osiyoda yetakchilikni egallab turgani holda, yaqin kelajakda dunyoning charm-poyabzal sohasi rivojlangan 10 ta davlatga qatoriga kirishi bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda, — deydi Uyushma raisi. — Nega deganda, bunga erishish uchun poydevor sifatida barcha shart-sharoit yaratib berilgan. Qolaversa, belgilangan marralar bosqichma-bosqich zabt etilayotgani ham yuqoridagi maqsadni amalga oshirish



uchun umumiy salohiyat mavjudligini anglatadi. Birgina misol, yurtimiz korxonalarini tomonidan soha uchun zarur xomashyolarning aksariyat qismi to'liq mahalliyashtirilib, tarmoqdagi iste'molchilar talabini uchun taklif qilimog'da, ular o'zaro manfaatli kelishuvlar bo'yicha o'z vaqtida yetkazilyapti. Natijada tannarx muayyan darajada pasayib, mahsulotlarimizning raqobatbardoshligi yildan-yilga oshmoqda.

2023-yil yanvar-noyabr oylarida ham tarmoqda samarali natijalarga erishildi. Ishlab chiqarish quvvatlarini soni oshdi, mahsulotlar turi va hajmi ortdi. Misol uchun, joriy yilning 11 oyida 7 trillion 105 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'shish 112 foizni tashkil etdi. Natijada mahsulot tannarxini 10,3 foiz kamaytirishga erishildi, 315 milliard so'm mablag' iqtisod qilindi. Yil yakuni bilan esa 7 trillion 701 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilishi reja qilingan.

Uyushma tomonidan 2024-yil uchun belgilab olingan rejalar ham ulkan. Jumladan, charm-poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kamida 49,7 foizga oshirish orqali 11 trillion 520 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni 5,2 foiz kamaytirib, 509 milliard so'm mablag'ni iqtisod qilishga erishish ko'zda tutilgan.

Investorlar sinovidan
o'tgan ishonchli tarmoq

Ma'lumki, har bir soha rivojida investitsiyalarning o'rni beqiyos. Shu o'rinda keyingi yillarda charm sanoatiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni tarmoq rivojining asosiy dastagi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

2017-2022-yillarda mavjud korxonalarini



modernizatsiya qilish va yangi investitsiya loyihalarni amalga oshirish hisobiga sohadagi 800 ta loyiha doirasida umumiy qiymati 930 million dollarlik investitsiya, jumladan, 291 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirildi. 70 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

Agar ushbu yo'nalishdagi raqamlarni yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, investitsiya hajmi yildan-yilga oshib borayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Xususan, 2017-yilda bor-yo'g'i 18 million dollar, jumladan, 5 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yil yakuniga kelib, 296,6 million dollarga yetdi. Boshqacha aytganda, 2017-yilga nisbatan 16 barobar ko'p investitsiya jalb etildi. Shundan 71,3 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy inves-

Xom-ashyodan tayyor
mahsulotgacha

O'zbekiston teridan charm, jelatin, protein va boshqa mahsulotlarni chuqur qayta ishlash bo'yicha Markaziy Osiyoda yirik markazga aylanib bormoqda.

Shuningdek, klaster usulida loyihalar amalga oshirish bo'yicha ham tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda soha bo'yicha terini qayta ishlash hamda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 10 dan ortiq klaster korxonalarini mavjud. Jumladan, "Peng Sheng Charm", "Orient Technology", "Premium Leather", "Angren Charm Invest", "Hamkor Nur Savdo", "Nafis Charm", "Ravon taraqqiyot orzusi" kabi korxonalarda ishlab chiqarishning to'liq zanjiri shakllantirilgan. 2023-yilda yana 5 ta yangi klaster tashkil etilishi rejalashtirilgan. Tarmoqda klaster loyihalarni amalga oshirishdan asosiy maqsad, eng avvalo, ishlab chiqarish zanjirini bir joyda jamlashdir. Bu orqali xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan barcha jarayon bir joyda bajarilishi hisobiga investitsiyaviy jolibardorlikni oshirish va tannarxni pasaytirishga erishiladi. Shuningdek, klaster usuli yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop hamda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish imkonini beradi. Logistika masalasini yengillashtirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini yo'lga qo'yish kabi zarur sharoitlar paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, terini qayta ishlovchi korxonalar uchun yagona oqova suv tozalash inshooti barpo etiladi, bunda 3-4 ta klaster korxonasi uchun markazlashgan yagona tozalash inshooti xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, jahon standartlaridan biri bo'lgan "LWG" (Leather Working Group) sertifikatiga ega bo'lishga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Xalqaro bozorga
yo'l yotqatgan o'zbek
charm-poyabzalari

Ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik yangilash, modernizatsiya qilish hamda jahon sifat standartlarini joriy etish bo'yicha sohada bugungi kungacha yuzlab investitsiya loyihalari hayotga tatbiq etildi. Natijada charm-poyabzal va charm buyumlar eksporti hajmi 2017-yilga nisbatan 5,5 barobar ko'payib, 2022-yilda 460 million dollardan oshdi.

Ayni paytga qadar poyabzal, charm-at-torlik, qorako'l va mo'yna mahsulotlari, asosan, Germaniya, Italiya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Misr va Koreya davlatlariga eksport qilingan bo'lsa, 2022-yildan ular qatoriga AQSH, Yaponiya, BAA, Kamerun va Kolumbiya kabi davlatlar qo'shildi.

Eksport salohiyatini yanada oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoqda. Jumladan, Germaniyaning "Berkemann" va Rossiyaning "Avanti", "Yaxting", "Parijskaya kommuna", "Ortomoda", "Maraks", "Bars", "Vostok", Turkiyaning "Vakko", "Hotic", "Greyder", "Yargic" poyabzal brendlari, "Manu Atelier" va "Esin Akan" kabi kompaniyalarining charm-at-torlik mahsulotlari brendlari bo'yicha "outsourcing" va "franchaying" yo'nalishida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Joriy yil yakuni bilan eksport hajmi 610 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, 2024-yilda Qatar, Vietnam, Meksika va Afrikaning bir qator davlatlari kabi 10 dan ortiq yangi eksport bozorlarini o'zlashtirish hamda 20 xil turdagi yangi mahsulotni tashqi bozorlarga yo'naltirish vazifasi belgilab olingan.

Yevropa bozoriga kengroq kirib borish maqsadida eng yirik standartlash va sertifikatlash tashkilotlari — Angliyaning "Charm ishchi guruhi" (LWG) va "Barqaror terichilikni rivojlantirish tashkiloti" (SLF) bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali mahalliy korxonalar eksport geografiasini kengaytirish bo'yicha ham amaliy choralar ko'rilmoqda. Kezi kelganda ta'kidlash o'rinni, joriy yil "O'zcharmsanoat" uyushmasi SLF va LWG sertifikatlash tashkilotlari a'zolariga qabul qilindi va bunga soha korxonalarini ham jalb etilmog'da.

Bu, o'z navbatida, uyushmaga a'zo korxonalarining nafaqat Yevropa, balki dunyoning istalgan nuqtasida erkin savdoni amalga oshirishga imkon yaratadi. Shuningdek, ushbu sertifikatlar xalqaro bozorda O'zbekiston mahsulotlarining tan olinganini anglatadi.

— Joriy yil 18-20-oktabr kunlari yurtimizda o'tkazilgan "UzCharmExpo-Eurasia — 2023" 15-xalqaro ko'rgazmasi doirasida "Global brendlari bilan hamkorlik O'zbekiston charm-poyabzal sohasining jahon poyabzal sanoatiga integratsiyalashuvi shakli sifatida" mavzusida xalqaro konferensiya ham bo'lib o'tdi, — deydi Faxriddin Boboyev. — Konferensiyada O'zbekiston charm-poyabzal sanoati so'nggi 6-yilda mintaqamiz va MDHda yetakchi o'rinni egallayotgani soha mutaxassislari ishtirokida tahlil qilindi. Tadbirda AQSH, Italiya, Germaniya, Turkiya, Xitoy, Rossiya va boshqa davlatlarning mahsulotni sertifikatlash bo'yicha nufuzli xalqaro tashkilotlari, xalqaro ko'rgazmalar va milliy charm-poyabzal assotsiatsiyalari vakillari ishtirok etdi. Umuman olganda, charm va charm-poyabzal sohasida mahsulot ishlab chiqarishning to'la uzviylashtirilgan zanjiri, o'sayotgan bozor va investitsiya dasturlari O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeyini yanada oshirmog'da. Ayni shu maqsadga uyushmaning tomonidan yiliga ikki bor tashkil etiladigan "UzCharmExpo" xalqaro ko'rgazmasi xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarning amaliy rivojlanishiga keng imkoniyat yaratmoqda.

Yangi marralar sari

Davlatimiz rahbarining yuqorida zikr etilgan 2023-yil 11-oktabrdagi qarori bilan 2023-2025-yillarda teri xom-ashyosini chuqur qayta ishlash negizida eksportga yo'naltirilgan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsion loyihalari ishga tushiriladi. Shuningdek, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasida investitsiya loyihalari uchun yer maydonlarini ajratish tizimi soddallashtirilib, kichik sanoat zonalarini faoliyatini takomillashtirilmoqda.

Respublikamizda tashkil etilgan 16 ta ixtisoslashgan charm-poyabzal kichik sanoat zonasida joylashtiriladigan investitsiya loyihalari uchun elektron onlayn auktsion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalarining boshlang'ich narxi 25-yil muddatdan kelib chiqib, hisob-kitob qilinadi. Yer uchastkalari elektron onlayn auktsion savdolariga aniqlangan boshlang'ich narxining 10 foiz miqdorida chiqariladi. Elektron onlayn auktsion savdolari g'oliblari tomonidan yer uchastkalari uchun mablag'lar 3 yil davomida teri ulushlarda to'lab beriladi.

Charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish va xorijiy brendlari bilan hamkorlik o'rnatish dasturi doirasida 2024-2026-yillarda "Berkemann", "Caprise", "Baldinini", "Li-Ning", "Anta Sports", "Peak Sport", "Xtep" kabi 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlari jalb qilindi.

2023-2025-yillarda charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarida yuqori qo'shilgan qiymatli, import o'rini bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha umumiy qiymati 1 milliard dollarga teng 769 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Umuman, "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq, 2030-yilga qadar mamlakatimiz charm va charm-poyabzal sohasida bundan-da katta amaliy ishlar qilindi. Xususan, sanoatning drayver sohasini rivojlantirish va huddudlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish maqsadi doirasida charm-poyabzal sanoatiga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlarni jalb etish hisobiga qo'shilgan qiymat 5 barobar oshirildi. Kelgusi 7 yilda sohaga qaratilgan e'tibor va amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston charm va charm-poyabzal tarmog'i yangi ufoqlarni zabt etishi shubhasiz.



TA'LIM VA RAQAMLASHTIRISH

HISOBOT UCHUN EMAS, SIFAT UCHUN XIZMAT QILADI

Oliy ta'lim tizimida qog'ozbozlikka qarshi kurash choralarini

Globallashuv jarayoni ta'lim tizimini ham muntazam takomillashtirishni taqozo etadi. Davr talabiga ko'ra, bugungi kun o'qituvchisi faqat yaxshi o'qitishi kerak. Bu esa pedagoglarni diqqatni chalg'itadigan majburiyatlardan xalos etishni nazarda tutadi. Bu majburiyatlar orasida eng kattasi, shubhasiz, qog'ozbozlik hamda ortiqcha yuklamadir. Co'nggi yillarda bu ikkisini kamaytirish borasidagi sa'y-harakatlar izchil tus oldi. Hatto yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ham kiritildi.

Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida Bosh qonunimizning 51-moddasi bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan vazifalar qatorida "Oliy ta'lim tizimida ortiqcha qog'ozbozlikka barham berish, professor-o'qituvchilarning vaqtini ichki hujjatlarni to'ldirishga sarflash bilan bog'liq jarayonlarga barham berish choralarini ko'rish" qayd etilgan. Oliy ta'lim tizimida qog'ozbozlik hamda ortiqcha yuklamani kamaytirish masalasining aynan Asosiy qonunda mustahkamlab qo'yilgani bu boradagi sa'y-harakatlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Oliy ta'lim tizimida qog'ozbozlik, ortiqcha yuklamalarni kamaytirishning bugungi kundagi standart yechimi raqamlashtirishda, — deydi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig'i Inoyatillo Ne'matov. — O'zbekiston oliy ta'lim boshqaruvi tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS — Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining ma'muriy, akademik, ilmiy va moliyaviy faoliyatini avtomatlashtirish, o'quv jarayonini tashkil etish, monitoringini yuritish va boshqarish, masofadan onlayn ta'lim xizmati ko'rsatish hamda vazirlik axborot tizimi bilan axborot almashish vazifasini bajaradi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish ishlari bajarilmoqda. Ushbu tizim ma'muriy, o'quv, ilmiy va

moliyaviy jarayonlarni boshqarish moduli o'z ichiga oladi. Uni bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalarida joriy etish orqali o'quv jarayoni modulida guruhi jurnali, dars jadvali, imtihonlar jadvali, talabning reyting daftarchasi, o'zlashtirish qaydnomalari, davomat hisoboti, diplom va akademik ma'lumotnomalar raqamlashtirildi. Shuningdek, ma'muriy jarayon modulida oliy ta'lim muassasasi strukturasi, talabalar kontingenti va ularning harakati, professor-o'qituvchilar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni yuritish hamda hisobotlarni tayyorlash raqamli tizimga o'tdi.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab barcha davlat OTMlarida talabalar o'quv varaqasi, guruhi jurnali, reyting daftarchasi, akademik ma'lumotnoma, dars jadvali, davomat va o'zlashtirishga oid ma'lumotlar, to'lov-kontrakt shartnomalari hamda aylanma varaqalar raqamlashtirildi. O'n ming talaba o'qiydigan OTMda qog'oz ko'rinishida yuritiladigan hujjatlar bekor qilinishi hisobiga bir o'quv yilida o'rtacha 90 million so'mgacha mablag' tejalandi. Axborot tizimi OTMning milliy reytingi onlayn hisobotlarini shakllantirish orqali faoliyatini onlayn rejimda tahlil qilib borish imkoniyatini beradi. 2021/2022-o'quv yilidan boshlab talabalar QR kodli to'lov-shartnomalarini shakllantirish imkoniyati yaratildi. Buning natijasida talabalar va ota-onalar joriy etilgan imtiyozli ta'lim kreditini mamlakatimizning istalgan hududidagi belgilangan tijorat banklaridan olish uchun murojaat qilishi mumkin. Shuningdek, OTMda shartnoma to'lovi monitoringi yuritiladi. Talabalar o'z profili orqali to'lov-shartnomalar uchun buyurtma beradi, onlayn ko'rinishda oladi va to'lovlar monitoringini yuritib boradi. Bundan tashqari, talabalarga to'lov shartnomalarini qog'oz ko'rinishida OTMdan borib olish bilan bog'liq ma'muriy



to'siqlar (navbatda turish, transport xarajatlari) uchun sarflanadigan vaqt va xarajat iqtisod qilinadi.

Tizimning oliy ta'lim muassasalarida monidan bakalavriat va magistratura bitiruvchilari uchun QR kodli diplom shakllantirish, tasdiqlash va taqdim qilish moduli ishlab chiqilib, foydalanish yo'lga qo'yildi. Malaka oshirishning an'anaviy (malaka oshirish markazlarida to'g'ridan-to'g'ri o'qish) shakli bilan birga mustaqil, muqobil hamda masofaviy malaka oshirish shakllari amaliyotga joriy etildi.

Oliy ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari uchun 25 ta'lim sohasi bo'yicha malaka talablari hamda 223 yo'nalish bo'yicha o'quv reja va dasturlar, 857 o'quv-uslubiy majmua hamda o'quv resurslari ishlab chiqilib, Bosh ilmiy-metodik markazning elektron kutubxonasi va masofaviy kurslar elektron platformasiga joylashtirildi.

Bosh ilmiy-metodik markaz hamda hududiy va tarmoq markazlar yagona axborot tizimiga ulangan bo'lib, o'quv jarayoni to'liq raqamlashtirildi. Pedagogik hamda innovatsion kompetentlikni muttasil oshirib borish maqsadida onlayn ochiq kurslar portali faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ta'lim masalasi jahonning ko'plab mamlakatlarida muhim vazifalar qatoridan

o'rin olgan. Ko'pchilik davlatlarda global raqobat sharoitida yangi talabalarga javob beruvchi, moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan yangilanishlar bo'lmoqda. Ko'p xorijiy davlatlarning oliy ta'lim tizimida sinov birliklarini qayd qilish va to'plash funksiyalariga ega bo'lgan hamda xorijda o'qishning akademik tan olinishini kafolatlovchi European Credit Transfer System (ECTS) sinov birliklari tizimi qabul qilingan. Jahonning ilg'or va o'zini oqlagan tajribasidan kelib chiqib, 2021/2022-o'quv yilidan mamlakatimizdagi barcha davlat oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom asosida tashkil etilyapti.

Kredit-modul ta'lim tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining bosqichlari va akademik darajasini aniq baholash imkonini beradi, ularni shaffof, tashxislanadigan va tan olinadigan holatga keltiradi. Bu esa jahon ta'lim muhitiga qo'shilishning asosiy shartlaridan biri. Ushbu tizimning joriy qilinishi tayyorlanayotgan kadrlarning yuqori malakali va jahon miqyosida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Bu ishlar orqali oliy ta'lim tizimi xodimlari bilan birga talabalar uchun ham qulaylik yaratish maqsadi ko'zlangan.

— Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish uchun, asosan, Yevropaning yetakchi davlatlari, shuningdek, AQSH, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar tajribasini o'zlashtirib, amaliyotga joriy etish ishlari davom etmoqda. O'qitish sifatini ta'minlash maqsadida ta'lim sifatini baholash mezonlari xalqaro akkreditatsiya talablariga moslashtirilmog'da, — deydi Inoyatillo Ne'matov. — Kelgusida qilinadigan asosiy vazifalarga to'xtalsak, mamlakatimizdagi kamida 10 ta OTM xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 taligidagi oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatiga kirishiga erishiladi. Oliygozlarning ilmiy salohiyati 70 foizga yetkaziladi. Ilmiy tadqiqot ishlarining sifatini oshirish yuzasidan ilmiy etiket normalarini tatbiq qilish maqsadida ilmiy noshirlik faoliyatida ko'chirmachilikni aniqlash tizimi joriy etiladi. Ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, rahbar va pedagog kadrlarga malaka oshirish dasturlarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Keltirilgan raqamlar ham, faktlar ham ijobiy mazmun kasb etadi. Biroq rejalar, davom etayotgan jarayonlar aniqmi? Muammolar-chi? Inobatga olinishi kerak bo'lgan takliflar bormi? Shu savollar bilan O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti dekani o'rinbosari Botir Mallaboyevga yuzlandik.

— Erishilgan natijalar samaradorligini qayd etgan holda ta'lim sifati borasidagi sa'y-harakatlarda ayrim sustkashliklar kuzatilayotganini ham tan olish kerak. Masalan, murojaat yoki yuklama ko'payganda serverlarga ortiqcha kuchlanish ta'sir qilmog'da. Shuningdek, viloyatlarda internet sifati yaxshi emasligi ham talabalar uchun muhim muammo bo'lib qolmoqda. Natijada professor-o'qituvchilar uchun ham papkani hujjatlar bilan qappaytirib yurish emas, talabalarga sifati va samarali ta'lim berish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosiy maqsadga aylanyapti, — deydi Mollaboyev.

— Erishilgan natijalar samaradorligini qayd etgan holda ta'lim sifati borasidagi sa'y-harakatlarda ayrim sustkashliklar kuzatilayotganini ham tan olish kerak. Masalan, murojaat yoki yuklama ko'payganda serverlarga ortiqcha kuchlanish ta'sir qilmog'da. Shuningdek, viloyatlarda internet sifati yaxshi emasligi ham talabalar uchun muhim muammo bo'lib qolmoqda. Natijada professor-o'qituvchilar uchun ham papkani hujjatlar bilan qappaytirib yurish emas, talabalarga sifati va samarali ta'lim berish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosiy maqsadga aylanyapti, — deydi Mollaboyev. — Shu ma'noda, oliy ta'lim tizimida qog'ozbozlikni keskin kamaytirish orqali professor-o'qituvchilar va soha xodimlarini o'z ustida ko'proq ishlash, xorijiy tajribalarni o'rganishga jalb etish, zamonaviy ilmiy-fan texnologiyalarini keng joriy qilish tufayli o'qitish sifatini yanada oshirish, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Mazkur masalalar yechimiga doir ko'plab

huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Ularda belgilangan vazifalarni tizimda barcha xodimlar ongli ravishda anglab, mas'uliyat bilan yondashsa, birgalikda yuqori natijalarga erishamiz. Shu o'rinda bu hujjatlarning mazmun-mohiyatini, unda belgilangan vazifalarni bandma-band bajarish uchun e'tibor berish zarur jihatlarni videoqo'llanma orqali tizimdagi barcha xodimlarga tushuntirish samara beradi, deb o'ylayman.

Tizimdagi pedagoglarning aksariyati oxirgi yillarda ortiqcha yuklama kamaygani, biroq hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar borligini aytdi.

— Har qanday tizimning boshqaruvchisi bo'lgan inson omili mavjud ekan, ko'zda tutilmagani salbiy jihatlar yuzaga chiqishi, kamchiliklarga yo'l qo'yilishi davom etadi. Mazkur jarayonda har bir xodimga o'z vazifasini to'g'ri taqsimlab berish juda muhim. Chunki ba'zi muammolarning avvali noto'g'ri taqsimotdan kelib chiqadi. Hujjatbozlikning bugungi xususiy ta'limdagi ahvoriga kelsak, uning kundan-kunga kamayib borayotgani kuzatilmoqda. Sababi, mamlakatimizda yangi tashkil etilayotgan davlat hamda xususiy ta'lim daroghlari sifati o'qitishni o'ziga asosiy vazifa qilib olmoqda. Natijada professor-o'qituvchilar uchun ham papkani hujjatlar bilan qappaytirib yurish emas, talabalarga sifati va samarali ta'lim berish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosiy maqsadga aylanyapti, — deydi Mollaboyev. — Erishilgan natijalar samaradorligini qayd etgan holda ta'lim sifati borasidagi sa'y-harakatlarda ayrim sustkashliklar kuzatilayotganini ham tan olish kerak. Masalan, murojaat yoki yuklama ko'payganda serverlarga ortiqcha kuchlanish ta'sir qilmog'da. Shuningdek, viloyatlarda internet sifati yaxshi emasligi ham talabalar uchun muhim muammo bo'lib qolmoqda. Natijada professor-o'qituvchilar uchun ham papkani hujjatlar bilan qappaytirib yurish emas, talabalarga sifati va samarali ta'lim berish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosiy maqsadga aylanyapti, — deydi Mollaboyev. — Erishilgan natijalar samaradorligini qayd etgan holda ta'lim sifati borasidagi sa'y-harakatlarda ayrim sustkashliklar kuzatilayotganini ham tan olish kerak. Masalan, murojaat yoki yuklama ko'payganda serverlarga ortiqcha kuchlanish ta'sir qilmog'da. Shuningdek, viloyatlarda internet sifati yaxshi emasligi ham talabalar uchun muhim muammo bo'lib qolmoqda. Natijada professor-o'qituvchilar uchun ham papkani hujjatlar bilan qappaytirib yurish emas, talabalarga sifati va samarali ta'lim berish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosiy maqsadga aylanyapti, — deydi Mollaboyev.

Ilm insoniyat kelajagini belgilayotgan ushbu davrda pedagoglarga qulay mehnat sharoiti yaratib berish ta'lim tizimi oldidagi muhim masala. Zero, ustozlar vaqt deb atalmish nodir ne'matni hamda aqal cho'g'ini samarasiz hujjatbozliklarga befoya hisobotlarga emas, yoshlarning bilim olishiga sarflashini bugungi davrning o'zi talab qilayotir.

Jonibek ALIJONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

ORAMIZDAGI ODAMLAR

FERUZA MUALLIMA QANCHA MAOSH OLADI?

BUNGA QASHQADARYOLIK OLIY TOIFALI O'QITUVCHINING O'ZI OYDINLIK KIRITDI

Kitob ko'tarib yurishdan charchamaydigan muallima bugun ham doimiy odatini kanda qilgani yo'q. Qo'ng'iroq chalinmasdan sinfga kirib, kitob varaqlab, daftariga nimalarnidir yozish bilan band. Negadir shu ustozning darsi boshlanmasdan o'quvchilar ham tanaffusdagi o'yinqaroqliklarini bir chetga surib, vazifalarni takrorlashga kirishib ketadi. Muallima bir marta bolalar darsga kirishi uchun baqirib-chaqirib yurganini hech kim ko'rgan emas.



anglasa-da, lekin ularning so'zlariga tushunmaydi. Faqatgina uch-to'rt so'zni yodlab olgan. Tarjimasini doim bolalardan so'ramoqchi bo'ladi yuqori imonim jim qoladi. Shu sinfda o'qiydigan nabirasini nigohi bilan izlashga tushadi. Ana, topdi. Yuzida tabassum paydo bo'lib uni kuzatadi. U esa raqsga tushayotgandek, qo'l harakatlari bilan qandaydir so'zlarni takrorlamog'da. Unga termulgancha, yod olgan xorijiy so'zlari ma'nosini nabirasidan bugun so'rab olishni ko'ngliga tugadi.

Tashqi olamni unutib, zo'r qiziqish bilan bolalarning eng yaqin o'rtog'i sifatida dars o'tayotgan ustozni bu paytda hech kim bezovta qilmaydi. Mabodo kimningdir zarur ishi bo'lsa, albatta, tanaffus bo'lishini kutishga majbur. Gohida mashg'ulotni

kuzatish istagida kirgan ota-ona yoki biror o'qituvchi so'nggi partalarda o'tirganiga e'tibor ham qaratmaydi. Kundalik ishini bajarib boraveradi.

Tanaffus bo'lgach, bolalar bilan xayrlashib, yana kitoblarini yig'ishtirib chiqib ketar ekan, o'qituvchilar xonasiga qadar besh-olti bola ortidan ergashib, keyingi mavzuni qachon o'tishiga qiziqib, so'rab boradi.

Tushga qadar shu yo'sinda dars o'tgan o'qituvchi ertalabki navbatda o'qiydiganlar o'qitishi yakunlasa-da, shoshilmaydi. Kunning ikkinchi yarmida o'qiydiganlarga ham darsi bor. Bir oz tanaffus va tushlikdan so'ng yana sevimli ishiga sho'ng'ib ketadi. Kun botish arafasida oxirgi darsini yakunlab uyiga qaytarkan, qo'lida bir talay narsa bo'ladi. Bu kun davomida o'quvchilaridan olingan test sinovlari, nazorat ishi, diktant yozilgan daftarlar. Kechga qadar ishlagan ko'pchilik hamkasblari bir oz holsizlanib, horg'in qaytsa, bu muallima har kungidek xushnud kayfiyatda ketadi. Aslida, muallimaning bir kunlik ishi hali yakuniga yetmadi. Xonadoniga borgach, uy yumushlarini yakunlab, tunda shogirdlarining daftarlarini bittalab tekshirib, baholab chiqishi kerak.

Avvallari og'izdan-og'izga o'tib, odamlar orasidagi mish-mishlarni tarqatish vazifasini bugun ijtimoiy tarmoqlar bajarayotgani sir emas. Kimdir xabar topgan, shekilli, Feruza muallimaning yigirma million so'mga yaqin maosh olishi ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib qoldi. Buni eshitganlarning birovi havas, birovi hasad qildi. Bilganlar: "Bu o'qituvchining mehnatini har kim ham qilavermaydi, bilimi ham a'lo. Haloli bo'lsin", deya maqtib qo'ydi. Bilganlar: "Yolg'on

xabar bo'lsa kerak. O'qituvchi ham 20 million so'm oylik olishi mumkinmi? Quruq gap-da", deya qo'l siltadi.

Rostini ayttsak, biz ham mish-mishlarga ishonib-ishonmay, bunga aniqlik kiritish istagida muallima bilan yaqinroq tanishishga harakat qildik.

Asli Kitob tumanida o'qituvchilar oilasida tarbiya topib, voyaga yetgan Feruza Muhammadiyeva bugun Shahrisabz shahrida yashaydi. Otasi Ro'zimurod aka ingliz tili, onasi Norbibi opa rus tili fani o'qituvchisi bo'lib, umrini ta'limga baxshida etgan insonlar. Feruzaning aynan ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi asl sababi ham otasi bilan bog'liq. Til o'rganishida ilk ustoz ham otasi.

— Jajji qizaloqligimdayoq ingliz tilini o'rganishni boshlaganman, — deydi Feruza muallima. — Ertalabdan

otamga shu tilda salom berardim. Keyin otam boshqa so'zlarni ham takrorlab, tarjimasini aytib berar, men tezda yodlab olardim. U ingliz tilida juda ravon gapiradi. Hatto gohida xorijliklar ham tan berardi. Shu bois, men otamdek ravon gapirishni juda xohlardim va shunga intildim. Keyinchalik uyda ikkalamiz faqat shu tilda muloqot qiladigan bo'ldik. U paytlarda o'qituvchilarga hozirgidek e'tibor yo'q edi. Ota-onamning olgan maoshi ro'zgor tebratishga o'lgan yetardi. Maktabni tugatgach, oliyog'onga ingliz tili o'qituvchisi bo'lish uchun hujjat topshirdim. Afuski, kontrakt asosida o'qishga kiribman. Oilaviy ahvolimni o'yab, o'qimaslikka qaror qildim. Ikkinchi yili yana hujjat topshirdim, bu safar ham kontrakt bo'ldi. O'qisam, baribir grant asosida o'qiyman, deb ahd qildim. To'rt yil shu holat takrorlandi. Oxiri beshinchi yilda grant asosida talaba bo'ldim. Bu men uchun eng quvonchli kun edi. Universitetni imtiyozli diplom bilan bitirdim.



Qo'lga o'qituvchilik diplomini olgan yosh kadr Kitob tumanidagi o'zi ta'lim olgan 5-umumta'lim maktabiga ishga bordi. Tashabbuskorligi, tirishqoqligi bilan tezda jamoa e'tiboriga tushdi. Halli bir yil bo'lmay, tumanida o'tkazilayotgan "Eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanloviqa qo'llanma berildi. Feruza g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu esa unga ikkinchi toifani olishga imkoniyat bo'ldi. Keyinchalik birinchi toifa olishga harakat qilib, barcha bosqichlardan a'lo o'tdi. Oliy toifa olishda ham hech bir muammoga duch kelmadim. Tajribasi oshib boraverib, milliy va xalqaro sertifikatlarini qo'lga kiritdi. Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi jamg'armasiga ham munosib ko'ridi. Hozir barcha ustamlar va maoshi bilan birga jami 18 million so'mga yaqin oylik olmoqda.

— Bugun mehnat qilgan, izlangan, o'z ustida ishlab, harakat qilgan o'qituvchi kam bo'lmaydi, — deydi F.Muhammadiyeva. — Kasbimni yaxshi ko'raman. Shuning uchun mashaqqatli ishdan darsga chekinmayman. Qancha ko'p o'rga o'tsam, shuncha rohatlanaman. Bugun qaysidir bolaga hech yo'q bittagina so'z o'rgata oldimmi, shundan mamnun bo'laman. Imkon darajasida o'quvchiga yaqin bo'lishga intilaman. Ularni eshitishga, fikrini erkin gapira olishiga sharoit yarataman. Gohida ko'p maosh olayotganini aytib qolishadi. Shunda hasad qilgan kishi bo'lsa, bir kun mening yonimda yurib ko'rsin-chi, deya kulib qo'yaman. Mehnat qilgan rohatini ham ko'rmog'da. Men buni boshqalar emas, o'zim misolimda amalda ko'rmog'daman.

Feruza muallima ayni paytda Shahrisabz shahrida yashasa-da, o'z maktabiga sodiq qolgan holda hamon shu yerda ingliz tili fanidan dars berib kelmoqda. Turmush o'rtog'i ham murabbiy, Sport ustasi. Ikki qiz, bir o'g'lini voyaga yetkazishmog'da.

Darvoqe, muallima Shahrisabzda o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlarda ko'ngilli sifatida tarjimonlik qiladi. Uning ingliz tilida ravon so'zlashayotganiga guvoh bo'lgan ba'zi xorijliklar o'zbek qizi ekaniga shubha bilan qarab qo'yishi ham bor gap.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

QORAQALPOQ TEATRINING SEVIMLI OG'ASI

Qoraqalpog'istonlik rejissyor Najimatdin Ansatboyev shu yil "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Najimatdin og'a "teatr", "aktyor" so'zlarini doimo muqaddas tushuncha sifatida his etadigan san'atkor.

1943-yili Qoraqalpog'istonning Kegeylisida tug'ilgan Najimatdin Ansatboyev 1966-yilda Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutining musiqali drama va komediya teatri aktyori bo'limini tugatgan. Milliy teatrdagi tajirivka o'tagan.

U rejissyorlik faoliyati davomida qoraqalpog' dramaturgiyasi bilan cheklanib qolmay, o'zbek, qozoq va boshqa xalqlar ijodiga ham murojaat etadi.

Rejissyor mehnat faoliyatini 1960-yilda Qoraqalpog' davlat musiqali drama va komediya teatrida aktyorlikdan boshlagan. Uni teatrga yoshlikdagi orzulari yetaklab kelgan edi. U o'quvchilik paytlaridayoq havaskorlik to'garigiga qatnagan, maktab va ovul tadbirlarida doira jo'rligida qo'shiq aytib, e'tibor qozongan. "Nukus bahori" festivalida professional va havaskor san'atkorlar qatorida maktab to'garigi qatnashchilari orasida faxrli o'rinni egallab, qo'l soati bilan mukofotlanganini og'a yaxshi eslaydi.

Ota-onasi Najimatdinning "artist" emas, ovul uchun yaqinroq, tushunarliroq kasb egasi bo'lishini xohlagan. Yosh yigit Nukusga kelib, hujjatlarini pedagogika institutiga topshirgan bo'lsa ham qalbidagi orzu boshqa fikrlarga yo'l bermay, uni faqat teatr sari undar edi. Intilishini sezib qolgan O'zbekiston xalq artisti, ustoz san'atkor Yo'ldosh Mamutov Najimatdinni teatrga ishga olishni taklif etadi va kichik rollarni bera boshlaydi. U tashqi ko'rinishi, ovozi, mehnatsevarligi, ovul odamlariga xos pokiza qalb egasi Najimatdinni "teatr uchun yaralgan" deb ishonardi. Shuning uchun unga beminat



yordam bergan ustoz shogirdining Toshkentda o'qish niyatini ham qo'llab-quvvatlab, oq yo'l tilagan.

Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutida tahsil olgan davri Najimatdin Ansatboyev uchun professional kasb poydevorini qurish yillari bo'ldi. Aktyorlik mahorati sirilarini sobiq ittifoq miqyosida e'tiborli mutaxassislar M.Rubinshteyn, S.Gutmanovich, sahna nutqi sohasining buyuk namoyandasi Nazira Aliyevadan oladi. Mustahkam bilim uning nafaqat Qoraqalpog'iston teatrida, balki o'zbek teatr san'atida eng salohiyatli ijodkorlardan biriga aylanishiga xizmat qildi. Yosh aktyor tez fursatlarda turli janrlarga mansub asarlarda qator ajoyib rollarni mahorat bilan ijro eta boshladi.

Najimatdin og'a va hamkasblari faoliyatining professional jihatlarini teatring ser-

mazmun repertuarida — XX asrning 70-yillaridan namoyon bo'la boshladi. Uning har bir yangi roli butun borlig'ini qamrab oladigan ijodiy imtihon darajasida bo'lib, aktyorlik qobiliyati, bilimi, izlanishlarini ko'zlangan maqsad sari yo'naltirardi. Og'a har bir obraz ustida ishlaganda qiyin yo'llardan boradigan, o'z oldiga murakkab ijodiy vazifalarni qo'yib, ularni hal etishdan zavqlanadigan san'atkor bo'ldi.

Qoraqalpog' teatri sahnasida M.Shamxalovning "Qaynona" komediyasida Ayoz, I.Maxsumovning "Navoiy Astrobodda" spektaklida Alisher Navoiy, U.Sheksperning "Otello'sida" Kassio, S.Xo'janoyevning "Mamanbiy'da" Maman, Ch.Aytmatovning "Momo yer" spektaklida Maysalbek, I.Yusupovning "Umrbek laqqi'sida" Xon, T.Seytonovning "Abu Rayhon Beruniy" dramasi-

da Ma'munshoh, J.Aymurzaevning "Berdaq" spektaklida Berdaq kabi rollari o'tgan asrning 60-70-yillarida yaratgan obrazlar guldastasidir. U musiqali drama va dramatik spektakllar, tragediya va komediya janrlarida birdek obrazlar yaratib, keng qirrali aktyor ekanini isbotlab keldi.

Najimatdin Ansatboyevning rejissurasida o'ziga xos mafkuraviy va ma'naviy

xususiyat, teatr sahnasida butun dunyoni aks ettiradigan makon, chegarabilmas kenglik bor. Qoraqalpog' teatri sahnasida Kengesboy Rahmonov, Tilovbergen Jumamuratov, Tajetdin Seytonov, Qipchoqboy Matmurov, Saylauboy Jumag'ulov, O'raboy Abdurahmonov asarlari bilan birga o'zbek dramaturg yozuvchilari Abdulla Qahhor, O'lmas Umarbekov, Said Ahmad,

1978-YIL. QORAQALPOQ DAVLAT YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI ILK MAVSUMINI NAJIMATDIN OG'A REJISSYORLIGIDA KENESBOY RAHMONOVNING "KECHIKKAN BAHOR" DRAMASI BILAN OCHADI. REJISSYOR SIFATIDA YOSHLAR TEATRIDA HAM TOMOSHABINLARGA MANZUR BO'LADIGAN "YALANG'OCH QIROL", "O'KINCH", "O'YINDAN OYMOQ" SINGARI SPEKTAKLLARNI SAHNALASHTIRDI.



Abdulla Oripov, qardosh dramaturglar B.Jakeyev, Mustay Karim, B.Kulinchakova, M.Yahyoev, A.Abdulin, A.Sagareli kabilarning asarlari munosib o'rin topdi.

Najimatdin og'a sahnalashtirgan "Suy-maganga suykalma", "Tiklangan tug", "Meni sudlanglar", "Yaralangan yuraklar", "O'g'ri qaroqchi urdi", "Yetinchi papam", "O'jarlar", "Oy tutilgan tunda", "Alpomish" kabi spektakllar teatr tarixida muhim rol o'ynaydi.

1978-yil. Qoraqalpog' davlat yosh tomoshabinlar teatri ilk mavsumini Najimatdin og'a rejissyorligida Kenesboy Rahmonovning "Kechikkan bahor" dramasi bilan ochadi. Rejissyor sifatida yoshlar teatrida ham tomoshabinlarga manzur bo'ladigan "Yalang'och qiro'l", "O'kinch", "O'yindan

oymog' singari spektakllarni sahnalashtirdi.

Najimatdin Ansatboyev sahnalashtirgan spektakllarning aksariyatini qoraqalpog' teatri taraqqiyotida mustahkam pilapoyalar, bosqichlar deb aytilish mumkin. Xususan, 1976-yili Mustay Karimning "Oy tutilgan tunda" spektakli butun sobiq ittifoq miqyosida o'tkazilgan teatrlar tanlovida birinchi darajali diplom bilan taqdirlangan. 1980-yili O'zbekiston teatrlari tanlovida "Yaralangan yuraklar" spektakli birinchi o'rinni egalladi.

"Sohibqiron" (Abdulla Oripov), "Adolatga xiyonat" (Berdaq), "Alpomish" (Najim Dovqorayev) spektakllarini, "Ajiniyoz" (Najimatdin Muhammadin) operasini tarixiy, milliy qadriyatlarimizni ko'rsatadigan sahna asarlari deyish mumkin. Rejissyorning tarixiy va zamonaviy mavzularda sahnalashtirilgan asarlari ham mutaxassislar tomonidan yuksak baholandi.

Najimatdin og'a Ansatboyev nafaqat yaxshi rejissyor va aktyor, balki yaxshi rahbar ham bo'ldi. 2002-2012-yillar davomida Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat musiqali teatriga bosh bo'lib, bu sohada ham katta tajribaga egaligini namoyon etdi. O'ta tirishqoq, ishiga mas'uliyatli inson sifatida, "Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist", "O'zbekiston xalq artisti" unvonlari, Berdaq nomidagi davlat mukofoti, "Mehnat shuhrati" va "El-yurt hurmati" ordenlari bilan taqdirlandi. 80 yoshni qarshilagan Najimatdin og'a endi "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni munosib tarzda bor tajriba va mahoratini yosh avlodga yetkazishga harakat qilaypti.

Minajtdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

HUNARDAN RIZQ UNAR

HOZIRGIDEK IMKONIYATLAR AVVAL BO'LMAGAN

Sovuq kunlar keldi. Mutaxassislar sovuqda boshyalang yurilsa, soch ildizidagi qon tomirlari keskin torayishi, qon aylanishi ham sezilarli darajada pasayishi haqida ogohlantiradi. Soch to'kilishi, qazg'oq kabi ortiqcha tashvishlarni orttirib olmaslik uchun harorat +5 darajadan boshlab, albatta, bosh kiyim kiyib yurish tavsiya etiladi. Bolalarga esa +10 darajada ham bosh kiyim kiydirish maqsadga muvofiq ekan. Eng yuqqa sanalgan shapka yoki ro'mol ham boshimizni har holda sovuqdan himoya qilishga yarashini nazarda tutsak, jundan to'qilgan bosh kiyimlarning bu boradagi xizmatiga izoh ham qolmaydi.

Echking nafaqat suti shifobaxsh...

Ona sutiga yaqin bo'lgan echki suti, undan tayyorlanadigan qurut tarkibidagi aminokislotalari bilan ham foydalidir. Olimlarning xulosasiga ko'ra, echki juni o'ziga xos xususiyati bilan farqlanadi.

Bunday mahsulotdan to'qilgan kiyimlar inson tanasini sovuqdan asrashdan tashqari badandagi og'riqni qoldirishga yordam berishi haqida eshitganmisiz?

"Sizlarda jun ro'mol o'ralmaydi-ku!"

Echki junidan to'qilgan mahsulotlari bilan el o'ziga tushgan farg'onalik usta hunarmand Mansur aka Hamidov ko'plab ko'rgazmalarda ishtirok etgan, mahsulotlari qirg'qa yaqin davlatga yetib borgan. To'quvchilikni mustaqil ravishda "Uy-ro'zg'or ensiklopediyasi" kitobidan o'rgangan. Birinchi marta o'g'liga nimcha to'qigan. U qadar o'xshamasa-da, nimcha o'zi va ayoliga juda yoqib tushadi. Keyinroq o't o'chiruvchi bo'lib ishlay boshlagan Mansur aka boshqird oilasi bilan tanishib qoladi. Ularning qo'shimcha ish sifatida jun paypoq to'qishini bilgach, o'g'li uchun bitta paypoq buyurtma qiladi. Lekin paypoq o'g'lining oyog'iga bir gal kichik, bir safar katta keladi. Xijolat torgan usta paypoq to'qib turgan payti "Qarang, oson-ku, o'zingiz

to'qisangiz bo'lmaydimi", deydi unga. Shu tariqa Mansur aka o'sha kishidan to'qish sirilarini puxta o'rganib oladi.

Hozir Saudiya Arabistonidek issiq mamlakat xalqi ham qahramonimiz oilasi to'qiyotgan jun ro'mollardan sotib olayotgani quvonarli. Sodda, samimiy hunarmand ularga "Bu sizlarda o'ralmaydi-ku", deya yuzlanganida, "Biz bu mahsulotni O'zbekistondan tarixiy lavha qilib olib ketamiz", deb javob berishadi. Arabistonlik xaridorlarning mana bu gaplari esa har qanday odamni ruhlantiradi: "Bu ro'mollari albatta o'rash shart emas, ularni pianino, jurnal stollarining ustiga yoyib qo'yaylikki, to'qigan odamning



qo'ligul ekani shundoqqina ko'rinib tursin. Kim nima maqsadda ishlatishni o'zi biladi, lekin biz mashhaqqatli qo'l mehnatini yuksak qadrlaymiz".

— Bu bizning yutug'imiz, — deydi 63 yoshni qoralab qo'yan qahramonimiz. — Mana shunday e'tiroflardan kuch olib, endilikda echki junidan bosh, oyoq, ustki kiyimlardan tashqari, gilam, choyshab to'qishni ham rejalashtiryapmiz.

Qizil qalampirning qudrati

Echki juni, asosan, bahorda qirgib olinadi. Xuddi meva-sabzavot paykal boshida, bog'ning o'zida ko'tara narxda sotilganidek, hunarmandlarga ham qirgim mahalli jurni arzon va tanlab olish imkoniyati keng. Mansur akaning aytishicha, bahorda 200 ming so'mdan olingan junlar hozir 350 ming so'mgacha oshib ketgan.

— Narxlar mavsumga qarab o'zgarib turadi, — deydi u. — Lekin qanday bo'lmasin, biz hunarimiz ortidan hamisha jun sotib olishga majburmiz. Aslida, jurni ip holatiga keltirib olguncha ham ancha harakat qilinadi. Oilaviy ishlaganimiz uchunmi, mehnatdan



charchamaymiz. Iplarimiz ishonchli bo'lishi, ya'ni yomg'ir, qorda kiyilganida rangi chiqib ketmasligi uchun bo'yash jarayoniga jiddiy yondashamiz. Hindistonning "Toj mahal" nomi sifatli bo'yog'ini Qo'qon bozoridan olib kelamiz. Qozon shahriga — boshqird ustozimning uyiga borganimda, jurni bo'yayotgan payti suvga o'zimning quritilgan qizil qalampirni urug'idan tozalab, solib qo'yganini ko'rdim. Nega qalampir solasiz, desam, "Sen nimalar qo'shasan rangga?" deb o'zimga savol berdi. Achchiqtosh, simob, tuz qo'shishimni aytdim. Shunda ustozim "Ranglarga qo'shib 1-2 dona qizil qalampir solib qo'ysang, yuvganingda ham, quyosh nurida ham sira o'chmaydi", dedi. Shundan so'ng bo'yoqlari qalampirsiz qaynatmaydigan bo'ldik.

"Miqdordan yutqazsak ham, sifat uchun ishlaymiz"

— Odatda echkingini juni 1-2 kilo sotilmaydi, bitta echki qancha jun bersa, shundoqqigacha o'rab qo'yilgan holatda olamiz, — deydi suhbatdoshimiz. — Jun o'rami orasidan

o'nta tolni tortib ko'ramiz, mayin, sifati jun shuning o'zida bilinadi. Hatto tirik echki juni bilan so'yilgan teridan olingan junning farqi borligini aniqladik. Shuning uchun iloji boricha eng chiroyli, yumshoq va sifati jun olib ishlatishga harakat qilamiz. Yaxshi jun topish bilangina ish bitmaydi. Hayvon hidi kelmasligi uchun uni maxsus vositalarda ham yuvish kerak. Bir kilo jun yuvilgandan keyin 650-700 gramm atrofta bo'lib qoladi. Junning tag qismlarini poyabzal uchun olib qo'yamiz. Bitta ro'mol uchun 150-200 gramm ip ketishini hisobga olganda, jurni tozalab yuvish kamida 2 ta ro'moldan kechish degani. Shunday bo'lsa-da, idishdagi suv tozarmagunicha jun suvdan olinmaydi. Yuvuvchilarga ham oson emas, qo'llariga qo'lqop, burniga niqob taqib oladi. Badbo'y hid qolmasligi kerak. Shunday xaridorlar borki, mahsulotni sotib olayotganida hidlab ko'radi.

Hozircha 3 xil to'qish yo'nalishida ish olib boryapmiz. Paypoqlar, asosan, spitsada to'qilsa, sharf, ro'mol, umuman, ko'plab bosh kiyimlar to'rig'na to'qiladi. Uchinchi yo'nalish — makrame usuli. Suvnir, sovg'abop sumkacha, hamyonchalar shu usulda faqat qo'l bilan bog'lash orqali to'qiladi. Buning

ham ishqiboji, xaridori ko'p. Bu usulda echki junidan foydalanmaymiz, makramada o'ta pishiq, sintetik iplar ishlatiladi. Nasib qilsa, zamon talabiga qarab, yana yangi mahsulotlar tayyorlash niyatidamiz.

"Xalqdan olib, xalqqa beramiz"

Hunarmand so'zida davom etadi:

— Qo'shni davlatlarda ham mijozlarimiz ko'p. Buning uchun fursatdan foydalanib, faoliyatimizni munosib yoritayotgan, bizni elga tanitayotgan siz kabi jurnalistlarga chuqur minnatdorlik bildiraman. Oynai jahonda ko'rgazmalardagi ishtirokimizni ko'rgan qishloqdoshlarimiz biz bilan faxrlanar ekan. Qishloqqa qaytganimizda, xursand bo'lib, "Sizni televizorda ko'rdik", deyishadi. Bu ham bir baxt, aslida. 100 dan ortiq shogirdim bor. Xuddi atlas-adras to'qish Marg'ilon ahlining o'z brendiga aylanganidek, bizning hunarimiz ham davomli bo'lishi kerak. Shu o'rinda aytishni istardimki, atlasu adrasimizdagi o'zbekona, milliy jilolari mahsulotlarimizda aks ettiramiz. Shuning uchun ham dunyoning turli nuqtalaridan kelayotgan sayyohlar ko'ziga ular yarq etib ko'rinadi. Ayniqsa, ko'rgazmalarda do'konimiz gavjum bo'lib, savdomiz baroridan keladi.

Ochig'ini aytilish kerak, 40-yildan buyon shu sohaning ichidami, lekin hech qachon hozirgiday imkoniyatlar bo'lmagan. Bugun hunarmandlarga barcha yo'llar ochiq. Muntazam ravishda ko'rgazmalar o'tkaziladi. Barchasida emin-erkin ishtirok etamiz. Biz doim xalq ichidamiz. Chunki xalqning o'zi yangi g'oyalar, yangi maralarga ilhom berib turadi. Ko'rmaganimizni, bilmaganlarimizni o'rganamiz. Bir so'z bilan aytganda, xalqning o'zidan olib, o'ziga beramiz. Eng muhimi, qo'l mehnatimiz xalqimizga va xorijdan kelayotgan mehmonlarga manzur bo'laypti.

Ha, biz ham yuzidan nur yog'ilgan, istarasi issiq Mansur Hamidovni hunarmandchilik ko'rgazmalarining birida kashf etganimiz rost. Shunday ekan, ularning mehnatini ro'yogba chiqarayotgan ko'rgazmalar ko'payaversin, hunarmandlarimiz dong'i dunyoni tutsin.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1246.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 23:25 Topshirildi — 23:50